

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**O‘ZBEK TILIDAN
MUTAXASSISLIK TILI BOYICHCHA
METODIK QO‘LLANMA
(huquqshunoslik fakulteti talabalari uchun)**

Toshkent - 2005

Mazkur metodik qo'llanma huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalarga mo'ljallangan bo'lib, unda talabalar tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlarida, nutqlarini kasbiy atamalar bilan boyitishda, ularni mutaxassisliklari mavzusidagi muloqotlarda mustaqil qo'llay olishlarida yordam beradigan material sifatida xizmat qiladi.

Muallif:

dots. H.Qahhorova
dots. D.Fattohova

Taqrizchilar:

dots.V.Karimjonova,
dots. M.Ahmedova

Mas'ul muharrir:

dots. H.Qahhorova

Muharrir:

Yu.O. Sobirxonova

Mazkur o'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy kengashining 2004 yil 29 dekabrdagi majlisida nashrga tavsiya etilgan (4-bayonnomasi).

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi

Fuqarolik – shaxsning muayyan davlatga mansubligi bo‘lib, davlat unga nisbatan o‘z hukmini o‘tkazadi. Uni Konstitutsiyada ko‘rsatilgan fuqarolik huquqlari va burchlari bilan ta’minlaydi, uning huquqini ushbu davlat ichida hamda tashqarisida muhofaza qiladi.

Fuqarolik – huquqiy holatdir. Fuqarolik munosabatlari bir tomonlama, alohida davlat yoki shaxsning xohishi bilan bekor qilinmaydi. Faqat davlat shaxsning xohishi bilan va uning taklifiga binoan bunday huquqiy aloqalarni uzishi mumkin.

Shaxsning fuqarolik holati davlat tomonidan alohida yuridik hujjat (pasport yoki guvohnoma) bilan belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi degan ibora nimani anglatadi? O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, fuqarolik instituti yangi ma’no kasb etadi. Endilikda fuqarolik davlatchiligidan muhim va ajralmas belgisidir. U shaxsning davlatga mansubligini, unga daxldorligini yuridik tomondan mustahkamlaydi. Shuningdek, davlat shaxsni konstitutsiyada mustahkamlangan huquq hamda burchlar bilan ta’minlaydi.

Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasligi shart.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik, fuqarolikka olish, uni to‘xtatish, ota – onalarning fuqaroligi o‘zgarganda bolalarining fuqaroligini aniqlash kabi O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga doir masalalar ko‘rsatilgan. Masalan, ushbu qonunga asosan, quyidagi shaxslar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bo‘ladilar:

- 1) ushbu qonun kuchga kirgan vaqtida O‘zbekiston Respublikasida yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarosi bo‘limgan hamda O‘zbekiston fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan shaxslar;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan tug‘ilganlar;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilgan shaxslar;
- 4) O‘zbekistonning xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha fuqarolikni olganlar;
- 5) davlat yo‘llanmasi bilan O‘zbekistondan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o‘tayotgan yoki o‘qiyotgan shaxslar, agar ular O‘zbekistonda tug‘ilgan bo‘lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo‘lsalar, boshqa davlat fuqarosi bo‘lmasalar va ushbu qonun kuchga kirgandan keyin kechi bilan bir yil ichida O‘zbekiston fuqarosi bo‘lish istagini bildirganlar.

Lug‘at

burch – долг, обязанность
bekor qilmoq - отменить, аннулировать
daxldor – касающийся, причастный, участник
mansub – относящийся, принадлежащий
istak – желание, намерения
muhofaza qilmoq – охранять, защищать
yo‘llanma – путевка, направление
putur yetkazmoq – наносить ущерб
mustahkamlamoq – крепить, укреплять

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: fuqarolik, muhofaza qilmoq, putur yetkazmoq, nazarda tutmoq, harbiy xizmat, istak, kuchga kirmoq.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: fuqarolik holati, belgisi, daxldorlik, qonuniy manfaatlar, mansub, davlat yo‘llanmasi, isbot qilmoq, doimiy yashagan.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida gaplar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarini qo‘yib ko‘chiring.
 - 1) Fuqarolik -holatdir
 - 2) Shaxsning - holati davlat tomonidan alohida ... hujjat bilan ... qo‘yiladi.
 - 3) Endilikdadavlatchiligidan vabelgisidir.
 - 4) U shaxsning mansubligini, unga daxldorliginijihatdan mustahkamlaydi.
 - 5) Fuqarolar o‘z vaamalga oshirishda boshqa, davlat va qonuniy manfaatlari, va putur yetkazmasligi shart.

Davlatning asosiy belgilari

Davlat jamiyatning siyosiy tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlardan bir qator o‘ziga xos belgilari bilan farq qiladi. Davlat belgilari to‘g‘risidagi masala hamisha huquqshunoslar e’tiborini tortib kelgan va bu haqda ularning turli talqinlari mayjud.

Hozirgi vaqtida davlatning umumiy e’tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko‘rsatish mumkin:

- davlat o‘z davlat chegaralari doirasida butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;
- davlat suveren hokimiyatning yagona sohibidir;
- davlat yuridik kuchga ega bo‘lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi.
- davlat o‘z funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mexanizm (mahkama)dir.
- davlat – qonuniylik va huquq-tartibot posboni bo‘lishga maxsus da’vat etilgan huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari (sud prokuratura, miliitsiya, politsiya va h.k)ga ega bo‘lgan yagona tashkilot;
- faqat davlatgina o‘z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta’minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo‘la oladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan davlat belgilarining jami siyosiy tizimda davlatning alohida o‘rni va yetakchi rolini to‘la izohlaydi.

Hozirgi sharoitda demokratiya va erkinliklarni, barqarorlik tinch – totuvligini, respublika xalqlari hamjihatligi va hamkorligini qaror toptirishda, islohotlar va ularni amalga oshirishdagi tashabbuskorlikda, madaniyati yuksak rivoj topgan jamiyatga o‘tishda O‘zbekiston davlati yetakchi rol o‘ynamoqda.

Ushbu maqsadlarni hayotga muvafaqqiyatli tadbiq etish davlatni mustahkamlash vazifalarini bajarish, O‘zbekistonda davlat hokimiyati barcha bo‘g‘inlarining samarali ishlashini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq.

Lug‘at

davlat – государство
siyosiy – политический
vosita - средство
posbon – страж, сторож, постовой
da’vat etmoq -- призывать
islohot – реформа
yaxlitlik – цельность, целостность
xavfsizlik – безопасность
yagona – единый
sohibi – владелец, обладатель
talqin – проповедь, интерпретация

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: davlat, turli talqinlar, chegara, moddiy vositalar, da’vat etmoq, xavfsizlik, islohotlar, yetakchi, hamjihatlik.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: siyosiy tizim, maydonga chiqmoq, mudofaa, hamkorlik, demokratiya, tashabbuskorlik, bo‘g‘in, madaniyat.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarini qo‘yib ko‘chiring:
 1. Davlat o‘z ... doirasida butun aholining yagona ... sifatida ... chiqadi.
 2. Davlat ... hokimiyatning ... sohibidir.
 3. Davlat kuchga ega bo‘lgan va normalarini aks ettirgan va ... qabul qiladi.
 4. Davlat - ... va huquq-tartibot posboni bo‘lishga maxsus da’vat etilgan huquqni ... organlariga ega bo‘lgan yagona
 5. Faqat davlatgina o‘z , suvereniteti, va ta’minlovchi ... hamda xavfsizlik organlariga ega bo‘la oladi.
 6. O‘zbekistonda hokimiysi barcha bo‘g‘inlarining ishlashini ta’minlash bilan ... bog‘liq.

Suverenitet tushunchasi va mohiyati

Davlat suvereniteti har qanday davlatning muhim belgisi bo‘lib, eng avvalo, davlat hokimiyatining mustaqilligi va oliyligida ifodalanadi. Davlat suvereniteti davlat ichida va tashqi munosabatlar sohasida davlat hokimiyatining mustaqilligini bildiradi. Mustaqillik va oliylik davlat hokimiyatining suveren xususiyatlari sifatida davlat ichki va tashqi faoliyatining siyosiy – huquqiy mohiyatini ifodalaydi va tegishli shakllarda namoyon bo‘ladi. Demak, suverenitetning mohiyati davlat ichida hokimiyatni amalga oshirishda hamda tashqi davlatlar bilan bo‘ladigan munosabatlarga kirishishda davlatning o‘z organlari orqali davlatga tegishli bo‘lgan hokimiyatni mustaqil holda amalga oshirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 1-bobi davlat suvereniteti to‘g‘risidagi masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, uning xarakterli jihatlari mustahkamlangan. Konstitutsiya muqaddimasining dastlabki qoidasi “Inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilib”, - degan so‘zlar bilan boshlanishi ham suverenitetning davlat uchun katta ahamiyat kasb etishini bildiradi.

Suverenitetning shakllari davlatning o‘z nomiga egaligida, xalq irodasini belgilab unga xizmat qilishida, o‘z milliy va ma’muriy tuzilishiga, davlat organlariga egaligida, o‘z hududiga, davlat tiliga, davlat ramzlariga, poytaxtiga ega bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Qolaversa, suverenitet milliy valyutaga ham ega bo‘lishni bildiradi.

Suverenitetni hurmat qilish – hozirgi xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, BMT va boshqa xalqaro aktlarda rasman mustahkamlangan. Eng asosiysi, suverenitet O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan.

Lug‘at

mohiyat - сущность, суть

munosabat – отношение, связь

sodiqlik – верность, преданность

ma’muriy – административный

rasman – официально, формально

muqaddima – введение, вступление, пролог

mustaqillik – самостоятельный, независимый

g‘oya – идея

muhim – важный, значительный

belgilamoq – определять

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: muhim, mustaqillik, mohiyat, muqaddima, sodiqlik, tantanali, kasb etmoq, hudud, davlat ramzlari, milliy.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: suverenitet, hokimiyat, amalga oshirish, tashqi, poytaxt, davlat tili, rasman, shakl, qoida.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki so‘z birikmalarini qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1.Davlat suvereniteti davlat ichida va tashqi ... sohasida davlat hokimiyatining ... bildiradi.
 - 2.Davlat suvereniteti har qanday muhim belgisidir.
 3. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 1-bobi davlat ... masalalariga
 4. Suverenitetning shakllari davlatning o‘z ... , o‘z ... , o‘z... , davlat ... , davlat ... , poytaxtiga ... namoyon bo‘ladi.
 5. Suverenitet milliy hambildiradi.
 - 6.Suverenitetni hurmat qilish hozirgi xalqaro..... va munosabatlarning asosiy biridir.

Davlat suvereniteti va shaxs

Davlat suvereniteti shu davlat hududida yashayotgan barcha shaxslarga nisbatan davlat hokimiyatining oliyligi prinsipini bildiradi. Boshqacha aytganda, davlat hokimiyati alohida nisbatan doimiy va turg‘un munosabatlarga kirishish sharti asosida amal qilishi mumkin. Shunda davlat o‘z suverenitetini mustahkamlay olishi va himoya qilishi mumkin. Davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarda shaxsning davlat bilan siyosiy va huquqiy bog‘liqligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat suvereniteti va shaxs o‘rtasidagi bog‘liqlik eng avvalo, Konstitutsiyaning 2-moddasi talablaridan kelib chiqadi. Unda yozilishicha “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”. Mana shu qoidaning o‘zi Konstitutsiyaning naqadar demokratik ekanligidan, xalq irodasi va manfaatlarini hamma narsadan

ustun turishidan darak beradi. Buning ustiga barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'ulligining mustahkamlanishi davlat suverenitetining muhim kafolatidir. Chunki davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi majburiyati, ular tomonidan davlat hokimiyati va xizmat vakolatlarining suiiste'mol qilinishiga yo'l qo'yaydi. Shu o'rinda "Davlat organlari va mansabdor shaxslarning mas'uliyati va javobgarligi to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi zarur.

Lug'at

doimiy - постоянный, вечный
turg'un – постоянно живущий
kafolat- гарантия
himoya qilmoq – защищать
modda – статья, пункт, параграф
shaxs – личность, лицо, человек
shart – условие
iroda – воля
mas'uliyat – ответственность
mansabdor – должностное лицо, чиновник

Topshiriqlar

1. Matnni o'qing
2. Matndagi quyidagi so'z va so'z birikmalarining ma'nosini izohlang va rus tiligi tarjima qiling: doimiy, turg'un munosabatlar, shart, bog'liq, xalq irodasi, majburiyat, yo'l qo'ymaslik, mansabdor shaxslar, javobgarligi.
3. Quyidagi so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: amal qilmoq, ifoda etmoq, darak bermoq, suiiste'mol qilmoq, talab, oliy, mas'uliyat.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so'zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o'qing, nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki so'z birikmalarini qo'yib, ko'chiring:

1. Davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarda shaxsning ... bilan ... va ... bog‘liqligi alohida ahamiyat kasb etadi.
2. Davlat ... irodasini ifoda etib, uning ... xizmat qiladi.
3. Davlat organlari va mansabdor shaxslar va ... oldida mas’uldirlar.
4. Mana shu qoidaning o‘zi xalq irodasi va manfaatlarini hamma ... ustun turishidan
5. Barcha davlat organlari va mansabdor ... jamiyat va fuqarolar oldidagi mas’ulligining mustahkamlanishi davlat ... muhim

Fuqaro

Shaxs siyosiy-huquqiy jihatdan *fuqaro* deb ataladi. Fuqaro – muayyan davlatda yashovchi, muayyan huquqiy maqomga, huquq, erkinlik, majburiyatlarga ega, davlat va huquqqa muayyan munosabatda bo‘luvchi kishidir. Fuqaro muayyan davlat fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Siyosiy jihatdan ozod, erkin inson, ya’ni fuqaro, fuqarolik va siyosiy huquqlar egasi bo‘lmish inson ideali birinchi marta fransuz inqilobi davrida (1789 yil), “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi” da e’lon qilindi. Bu Deklaratsiyada Jan Jak Russo va boshqa Yevropa ma’rifatparvarlarining insonning tabiiy huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalari, ya’ni “Insonlar huquqiy jihatdan erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar va shundayligicha qoladilar” degan g‘oyalari o‘z aksini topgan.

Fuqaro tushunchasi qadimiy davrda va o‘rta asrlarda keng ishlatilmagan. Ishlatilgan taqdirda ham boshqacha ma’noda qo‘llanilgan. O‘rta asrlarda davlat va siyosiy hokimiyat bir-biri bilan chirmashib ketganligi sababli, inson tushunchasidan farq qiluvchi fuqaro tushunchasi bo‘lмаган.

Yangi davrda siyosiy hokimiyat fuqarolik jamiyatidan ajralib chiqdi va uning oqibatida siyosiy inson, ya’ni fuqaro tabiiy insondan ajratildi. Siyosiy sohada inson fuqaro huquqlari bir-biridan ajratiladigan bo‘ldi.

Fuqaro tushunchasi shaxsning davlat bilan faol munosabatlarini aks ettiradi. Har bir shaxs bir vaqtning o‘zida turli maqomda namoyon bo‘lishi mumkin. Shaxsga oddiy biologik ma’nodagi jamiyat a’zosi, davlat fuqarosi va a’zosi, ijtimoiy – siyosiy hayotning qatnashchisi sifatida yondashish mumkin.

Fuqaro tushunchasi “inson” so‘zining chinakam ijtimoiy ma’nosini aks ettiradi. Fuqaro jamiyat kishisi sifatida ijtimoiy va siyosiy hayotning

faol qatnashchisi, huquq va erkinliklar egasi, tegishli burch va majburiyatlarni bajaruvchidir.

Fuqaro iborasi insonning muayyan davlatga taalluqliligi ma’nosida ishlatiladi. Shuning uchun u huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, davlat tomonidan belgilangan burchlarni bajaradi, huquqiy munosabatlar subyekti va ma’lum huquqiy maqom egasi bo‘ladi.

Lug‘at

erkinlik – свобода

inqilob – революция

ma’rifatparvar –просветитель

tabiiy – естественный; стихийный, физический

ijtimoiy – общественный

hokimlik – власть, государство

namoyon bo‘lmoq – показаться, появляться

oqibati – результат

homiylit – покровительство

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.

2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: fuqaro, huquqiy maqom, erkinlik, majburiyat, inqilob, ma’rifatparvarlar, g’oya, tushuncha, namoyon bo‘lmoq.

3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: fuqarolik jamiyati, burch, e’lon qilinmoq, qadimiylar, hokimiyat, farq qilmoq.

4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

5. Quyidagi savollarga javob bering:

1. Fuqaro tushunchasiga ta’rif bering.

2. Fuqaro tushunchasi qadimiylar davrda ham ishlatilganmi?

3. Fuqarolik jamiyati deganda siz nimalarni tushunasiz?

4. Shaxs, fuqaro, tabiiy inson tushunchalariga izoh bering.

6. Matn mazmunini so‘zlab bering.

7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki so‘z birikmalarini qo‘yib, ko‘chiring:

1. Shaxs siyosiy – huquqiy jihatdan ... deb ataladi.

2. Fuqaro muayyan ... fuqaroliliga shaxsdir.

3. Yangi davrda siyosiy hokimiyat ... ajralib chiqdi.
4. Fuqaro tushunchasi shaxsning ... bilan faol ... aks ettiradi.
5. Fuqaro so‘zi insonning muayyan davlatga ... ma’nosida ishlatiladi.
6. Fuqaro huquq va ... ega bo‘lib, davlat tomonidan belgilangan ... bajaradi.

Shaxs

Inson – tabiiy kuch va ijtimoiy mavjudot. Lekin u mehnat qilish, ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo‘lganligi bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. Insonning kuchi shundaki, u ijtimoiy kuch, jamoaning, fuqarolik jamiyatining ajralmas bo‘lagidir. Jamiyatda insonning ongi shakllanadi, tafakkuri rivojlanadi, tili boyiydi, tajribasi ortadi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratadi. Jamiyat tufayli inson ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etadi. O‘zining jamiyat hayotidagi o‘rnini anglaydi. Fan va texnikaning hamma yutuqlari – insonning aqliy salohiyati va ijodi natijasidir. Inson jamiyatda boshqalardan ajralgan holda emas, balki odamlar bilan doimo aloqada bo‘ladi. Uning faoliyati turli xil omillar bilan ifodalanadi.

Inson haqida yoziladigan meditsina adabiyotlarida shaxsiy iborasi ishlatilmaydi. Unda “odam” va “induivid” iboralari sinonimlar sifatida ishlatiladi. “Shaxs” iborasi biologik, tabiiy zot ma’nosida emas, balki ijtimoiy borliq subyekti ma’nosida ishlatiladi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida muayyan o‘ringa ega inson huquqiy adabiyotlarda **shaxs** deb yuritiladi. Shaxsning davlat bilan munosabati masalasi muhim bo‘lib, shaxsning huquqiy maqomi tushunchasida o‘z aksini topadi.

Shaxsni har tomonlama ravnaq toptirish – dasturiy vazifa. Inson va jamiyat, shaxs va jamoa o‘zaro aloqador. Shaxs – jamiyatning bir bo‘lagi. Shaxsning ham, jamoaning ham o‘z manfaatlari bor. Shaxsiy manfaatlар bilan jamoa manfaatlarining nisbati alohida muhim nazariy masaladir.

Lug‘at

mavjudot – все сущее, природа

tafakkur - мышление

salohiyat – способность

manfaat – польза, благо

qobiliyat – способность, одаренность

iqtisodiy – экономический

ifodalanmoq – выражаться
jamoa – публика, народ
фаолият – деятельность
omil – фактор; причина
borliq – всё, что есть; вселенная, весь мир

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: shaxs, ijtimoiy mavjudot, jamoa, fuqarolik jamiyat, tafakkur, ijtimoiy munosabatlar, manfaat.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: inson, jamiyat, aqliy salohiyat, faoliyat, shaxsiy manfaat, munosabat.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki so‘z birikmalarini qo‘yib, ko‘chiring:
 1. Jamiyatda insonning ongi
 2. Jamiyat tufayli hayotda faol ishtirok etadi.
 3. Ijtimoiy tizimida muayyan o‘ringa inson deb yuritiladi.
 4. Fan va texnikaning hamma yutuqlari insonning va natijasidir.
 5. Jamiyatda inson moddiy va ma’naviy ... yaratadi.
 6. Shaxs - ... bir bo‘lagi.

Demokratik jamiyat

Demokratik jamiyat – eng avvalo fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni – shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy – siyosiy munosabatlarni rivojlantirishdan, uyg‘unlashtirishdan iboratdir. Aynan fuqarolik jamiyat, demokratik jamiyat qurishda yuristlarning o‘rni katta. Buni davlat, huquq va jamiyat muayyan aloqadorligida isbotlasa bo‘ladi. Xo‘s, jamiyatning demokratikligi nimada ifodalanadi va qanday belgilanadi?

Davlatda oddiy fuqaroning haq – huquqlari qanday himoyalanishida, fuqaro tomonidan o‘z haq-huquqlarini to‘liq ishlata olishi va umuman uning davlatdagi o‘rnida ifodalanadi va belgilanadi.

Davlat demokratikligida uning xalqining huquqiy salohiyati, huquqni to‘g‘ri tushunishi va uni hayotga tadbiq eta olishi juda katta ahamiyatga ega.

Huquqshunoslar jamiyatda, odamlar orasida huquq haqida tushuntirish ishlari olib borishi, uni targ‘ibot etishi odamlar huquqiy salohiyatini oshirishda katta yordam beradi.

Demokratik davlat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati va uning o‘z konstitutsiyasi borligi bilan ham ajralib turadi. O‘zbekiston ham bu davlatlar orasiga kiradi. 1992 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqqan holda o‘zbek jamiyati va davlati tayanadigan asosiy prinsiplarni ajratish mumkin:

- O‘zbekiston – suveren davlat
- O‘zbekiston – demokratik, dunyoviy respublika
- O‘zbekiston Respublikasining xalqi hokimiyatning yagona manbayi hisoblanadi.
- Davlat hokimiyatining yuqori organlari – parlament va xalq tomonidan saylanadigan prezident hisoblanadi.
- Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr – qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat deb tan olinadi.
- Konstitutsiyada umume’tirof etgan inson huquqlari va erkinliklari mustahkamlanadi.

Yuqorida ko‘rsatilganidek, O‘zbekistonda davlat hokimiyati organlari tizimini tashkil etish zamirida uning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linishi prinsipi mavjud.

Lug‘at

targ‘ibot – пропаганда

ijro etmoq – исполнять, выполнять

qadr-qimmat – цена, ценность

tatbiq etmoq – применять, прилагать

uyg‘unlashtirmoq – привести в соответствие

tayanmoq – опираться

aloqadorlik – отношения , связь, причастность

tan olmoq – признавать; принимать

tushuntirmoq – разъяснять, объяснять

himoyalanmoq – защищаться, охраняться

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: rivojlantirish, uyg‘unlashtirish, aloqadorlik, belgilanmoq, huquqiy salohiyat, targ‘ibot qilmoq, ijro etmoq, yagona.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: jamiyat, haq-huquqlar, ifodalanmoq, tadbiq etmoq, tayanmoq, qadr-qimmat, oliv qadriyat.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki so‘z birikmalarini qo‘yib, ko‘chiring:
 1. Demokratik jamiyat – eng avvalo jamiyatidir.
 2. Demokratik davlat qonun ..,, sud hokimiysi va o‘z borligi bilan ham ajralib turadi.
 3. O‘zbekiston Respublikasining – hokimiyatning yagona ... hisoblanadi.
 4. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari deb
 5. Konstitutsiyada umume’tirof etgan inson va ... mustahkamlanadi.
 6. Huquqshunoslar jamiyatda, odamlar orasida huquq haqida ... ishlari ..., uni targ‘ibot lozim.
 7. Demokratik jamiyat haqida yana o‘z mulohazalaringizni bildiring.

Xalqaro shartnomalar

O‘zbekiston Respublikasining bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvi xalqaro shartnomaga deyiladi. Xalqaro shartnomalar: shartnomma, bitim, konvensiya, protokol, memorandum, deklaratsiya, xatlar va notalar almashuvi deb nomlanadi va shunday ko‘rinishda tuziladi. Shuningdek, boshqacha nomlanishi ham mumkin. Sharhnomalar qoida tariqasida, yozma shaklda tuziladi. Davlatning siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-

texnikaviy, madaniy, huquqiy va boshqa sohalardagi faoliyati xalqaro shartnomaning obyekti bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro shartnomalarini tuzish huquqi davlatga tegishlidir. Bunday shartnomalar quyidagi tartibda tuziladi:

- O‘zbekiston Respublikasi nomidan - davlatlararo shartnomalar.
- O‘zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan - hukumatlararo shartnomalar.
- O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari nomidan - idoralararo shartnomalar.

Mazkur shartnomalarga asosan xalqaro ommaviy huquq, shuningdek, xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar vujudga kelishi mumkin. Xalqaro shartnomalarini tuzishdan asosiy maqsad, bir davlat fuqarosining ikkinchi davlat hududida mulkiy va shaxsiy huquqlari tan olinishini va muhofaza kilinishini ta’minlashdan iborat. Shartnomalar tuzishda har bir davlatning teng huquqliligi va mustaqilligini hurmat qilish tamoyiliga amal qilinadi. Shartnomalarda adliya idoralari o‘rtasidagi hamkorlik, davlatlarning fuqarolari va yuridik shaxslarining huquqlarini himoya qilish, sud organlarining vakolatlarini va huquqini tadbiq qilishni belgilash, chet el fuqarolarining protsessual huquqlarini belgilash, huquqiy yordam berish haqidagi topshiriqni bajarish, fuqarolik va oilaviy ishlar bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni tan olish va ijro etishni ta’minlash, hujjatlarni qabul qilish va jo‘natish, jinoyatchini topshirish va jinoiy ishlar bo‘yicha kerak bo‘lgan boshqa huquqiy yordam ko‘rsatish kabi masalalar bo‘yicha vujudga keladigan munosabatlar tartibga solinadi.

Lug‘at

shartnoma – договор, соглашение, контракт

nomlanmoq – именоваться

madaniy – культурный; цивилизованный

ommaviy – массовый; все общий

adliya – юстиция, правосудие

tartibga solmoq – приводить в порядок; налаживать;
регулировать

keлишув – соглашение, договоренность

amal qilmoq – действовать, соблюдать

teng huquqli – равноправный

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: xalqaro shartnoma, majburiyat, ixtiyoriy kelishuv, bitim, davlatlararo, hukumatlararo, idoralararo, adliya idoralari, tartibga solmoq.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: ommaviy huquq, shaxsiy huquq, hamkorlik, huquqiy yordam, shartnoma, deklaratsiya, ijro etmoq.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib ko‘chiring:
 - 1) Xalqaro shartnomalar: ... , bitim, ... , protokol, deklaratsiya, va notalar almashuvi deb nomlanadi.
 - 2) Shartnomalar shaklda tuziladi.
 - 3) O‘zbekiston Respublikasi nomidan shartnomalarni tuzish huquqi ... tegishlidir.
 - 4) Shartnomalar tuzishda har bir teng va ... hurmat qilish tamoyiliga
 - 5) Xalqaro shartnomalarda bir fuqarosining ikkinchi davlat hududida ... va huquqlari tan ... va muhofaza qilinishini ... iborat.

Vazirlar Mahkamasi - O‘zbekiston Respublikasining hukumati

O‘zbekiston Respublikasining hukumati iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalarda samarali faoliyat ko‘rsatilishiga, qonunlarning ijro etilishiga, Oliy Majlisning boshqa qarorlarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining bajarilishiga rahbarlikni ta’minlaydigan ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi tasarrufida bo‘lgan va davlat va xo‘jalik boshqaruvining O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha o‘z vakolatiga kiruvchi barcha masalalarini hal etishga haqlidir.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ham ega.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi qonunda Vazirlar Mahkamasining ijroiya hokimiyat organi sifatidagi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari to‘liq ko‘rsatib berilgan. Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplariga asoslanadi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qiladi. Amaldagi qonun hujjalari muvofiq , ularga zarur yordam ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasining Rayisi hisoblanadi.

Lug‘at

ijro etmoq - использовать

rahbarlik - руководство

samarali - плодотворный, эффективный

tashabbus – инициатива; начинание

millat - нация

farmon – указ

qonunchilik - законность

hamjihatlik – согласие, солидарность, дружно

elatlar – страна, родина, племя, род, соплеменники

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
1. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: Vazirlar Mahkamasi, ijro etuvchi, davlat boshqaruvi, hamjihatlik, vakolat, qonunchilik tashabbusi, elatlar, hisobga olmoq.
2. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini ishtirokida gaplar tuzing: hokimiyat, xo‘jalik boshqaruvi, demokratiya, qonuniylik, ta’minlamoq, samarali.
3. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
4. Matn asosida savollar tuzing.

5. Matn mazmunini so‘zlab bering.
6. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarini qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Vazirlar Mahkamasi ... boshqaruvi va xo‘jalik ... organlariga rahbarlik qiladi.
 - 2) Vazirlar Mahkamasi ... tashabbusi ... ham ega.
 - 3) Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida ..., ... va qonuniylik ... asoslanadi.
 - 4) Vazirlar mahkamasi o‘z vakolatiga kiruvchi birlashmalari bilan qiladi.

Huquq va uning belgilari

Huquq - davlat tomonidan o‘rnatilgan yoki maqullangan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalarining tizimi. “Huquq” iborasi ikki manoda qo‘llaniladi. Birinchi manosi umummajburiy xulq-atvor qoidalarining yig‘indisi. Bu mano u yoki bu insonning irodasi hamda xohish-istagidan kat’iy nazar mavjud bo‘ladi. Ikkinchisi jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan huquq. Bu mano yuridik jihatdan shaxs erkinligini taminlaydi, unga mustaqillik beradi va tashabbus ko‘rsatishga imkon yaratadi.

Huquq davlat bilan chambarchas bog‘liq. Davlatsiz huquq bo‘lishi mumkin emas. Chunki aynan davlat huquqni keltirib chiqaradi va huquqiy normalarning amalga oshirilishini kafolatlaydi, huquqni muhofaza qiladi.

O‘z navbatida, davlat ham huquqsiz mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Huquqning asosiy belgilari bu:

- Davlat tomonidan o‘rnatilishi
- Barcha uchun majburiyligi
- Huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi.

Huquqadolatdan ajralmasdir. Huquq jamiyat hayotida muayyan funksiyalarni bajaradi. Huquqning funksiyasi deganda, ijtimoiy munosabatlarga tasir etish, ularni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari tushuniladi.

Huquqning asosiy funksiyalari quyidagilar: tartibga soluvchi, qo‘riqlovchi va tarbiyaviy.

Tartibga solish funksiyasi - tegishli ijtimoiy aloqalar hamda munosabatlarni va u yoki bu subyekt faol xulq-atvorining mezonini mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat.

Qo‘riqlash funksiyasi huquqiy muhofaza va yuridik javobgarlik choralarini belgilaydi.

Tarbiyaviy funksiyasi nimalar qilish mumkin, nimalar esa ta’qiqlanadi, u yoki bu vaziyatda qanday harakat qilish lozimligini belgilaydi.

Lug‘at

huquq - право

adolat – справедливость, правосудия

tartib – порядок; режим

o‘rnatmoq – устанавливать

qo‘riqlamoq – охранять, защищать

tarbiyaviy – воспитательный

mezon – критерий, мерило

choralar – мероприятие; мера

ta’qiqlamoq - запрещать

xulq-atvor – нрав, характер, поведение.

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang, ularni rus tiliga tarjima qiling: huquq, shaxs erkinligi, tashabbus ko‘rsatish, mustaqillik, tartibga solish, qo‘riqlash, tarbiyaviy, vaziyat.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: xulq-atvor, jismoniy shaxs, kafolat, muhofaza qilmoq, javobgarlik, munosabatlar.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Quyidagi savollarga javob bering:
 - 1) Huquq deganda nimalarni tushunasiz ?
 - 2) Huquq atamasi qanday ma’nolarda qo‘llaniladi ?
 - 3) Huquqning asosiy belgilarini aytинг ?
 - 4) Uning asosiy funksiyalarini sanab bering.
 - 5) Huquqning tartibga solish funksiyasi haqida gapiring.
 - 6) Qo‘riqlash funksiyasi deganda nimalarni tushunasiz?
 - 7) Tarbiyaviy funksiyasi haqida nimalarni bilasiz ?

6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarini qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Huquq – umummajburiy xulq-atvor ... yig‘indisi .
 - 2) Huquq davlat bilan chambarchas
 - 3) Davlat huquqiy normalarining amalga oshirilishini ... , huquqni
 - 4) Huquq ... hayotida muayyan funksiyalarni
 - 5) Huquqning asosiy quyidagilar: tartibga ... , qo‘riqlovchi va tarbiyaviy.
8. “Mening huquqlarim” mavzusida matn tuzing.

Huquqning kelib chiqishiga doir nazariyalar

Davlat kabi huquqning kelib chiqishi to‘g‘risida ham turli nazariyalar mavjud. Ular quyidagilar:

1. ***Tabiiy huquq nazariyası*** - huquq nazariyalarining eng qadimiylaridan biri. Huquq tabiatan mavjud, uni hech kim o‘ylab topmagan, u xuddi insonning o‘zi kabi tabiiydir. Ushbu nazariya tarafdorlari tabiiy huquqni yuridik normalarning yig‘indisi ko‘rinishidagi huquqqa qarshi qo‘yadilar. Tabiiy huquq - davlat intilishi zarur bo‘lgan o‘ziga xos ideal.

2. ***Huquqning tarixiy nazariyası*** vakillari huquq tarixan paydo bo‘lgan va rivojlanadi, deb hisoblaydilar. Yerga ekilgan urug‘ kabi u xalqning ongida o‘sib boradi vaadolat, qonunlar shaklida namoyon bo‘ladi. Huquq tabiatdan kelib chiqmaydi. U yoki bu xalqning tarixiy hayoti huquqni qanday ko‘rinishga keltirsa, u shunday bo‘lib qoladi.

3. ***Huquqning psixologik nazariyasida*** huquqning kelib chiqishi va rivojlanishi shaxs yoki shaxslar guruhining psixologiyasi bilan izohlanadi. Huquq psixologik yo‘nalishlar, turli kechinmalar, hissiyotlar va instinktlarning mahsuli, deb qaraladi.

4. ***Huquqning sinfiy (marksistik) nazariyası*** huquqning sinfiy mohiyatiga urg‘u beradi. Bunda huquq hukmron sinf irodasining qonun darajasiga ko‘tarilganligi sifatida talqin etiladi. Bu iroda mazkur sinf hayotining moddiy sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Lug‘at

nazariya - теория

tabiiy – естественный; стихийный

ong – сознание, ум, разум

izohlanmoq – объясняться, разъясняться

kechinmalar – переживание, испитание, ощущение, чувство

mahsuli – плоды

moddiy - материальный

talqin etmoq – проповедовать, трактовать, интерпретировать

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va lug‘at yordamida rus tiliga tarjima qiling: nazariyalar, tabiiy, ong,adolat, o‘sib bormoq, psixologik yo‘nalishlar, urg‘u bermoq, hukmron sinf.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: vakillar, qonunlar, tarixiy sharoit, hissiyotlar mahsuli, talqin etilmoq, moddiy, sinfiy mohiyati.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Huquq to‘g‘risida turli mavjud.
 - 2) Huquqning tarixiy nazariyasi vakillari huquq paydo bo‘lgan va, deb hisoblaydilar.
 - 3) Huquq psixologik, turli ..., mahsuli deb qaraladi.
 - 4) Huquqning sinfiy nazariyasi huquqning sinfiy urg‘u beradi.
8. Huquqning kelib chiqishiga doir nazariyalarga nisbatan o‘z fikringizni bildiring.

Huquq normalarining tuzilishi

Huquq normasi tuzilishiga ko‘ra uch tarkibiy qism: gipoteza, dispozitsiya, sanksiyadan tashkil topgan.

Gipoteza - huquq normasining tarkibiy qismi bo‘lib, unda norma amal qila boshlaydigan, bajariladigan sharoit bayon etiladi.

Dispozitsiya - huquq normasining tarkibiy qismi bo‘lib, unda xulq-atvor qoidalarining o‘zi ifodalanadi, huquq subyektlarining huquq va majburiyatlar belgilab beriladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 223-moddasida belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan o‘tish uchun javobgarlik belgilangan. Bu huquq normasining dispozitsiyasi - shu hukumatning ruxsatisiz yoki qalbaki hujjatlardan foydalanib, davlat chegarasidan noqonuniy o‘tishning ta’qiqlanganligidir.

Huquq normasining huquqbuzarga nisbatan qo‘llanishi lozim bo‘lgan davlat majburlov choralarini belgilaydigan tarkibiy qismi sanksiya deyiladi.

Sanksiya- huquq normasini bajarmaganlik uchun davlat organlari qo‘llaydigan majburlov chorasi. Sanksiyaning turlari xayfsan, jarima, ozodlikdan mahrum etish va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Huquq normalarining mazkur tarkibiy qismlari barcha huquq normalarida ham mavjud emas. Masalan, konstitutsiyaviy huquq normalarida odatda hech kanday shartlarsiz amal qiladigan va majburlov choralarini nazarda tutilmagan qoidalar bayon etiladi. Fuqarolik huquqining ko‘pchilik qoidalarida sanksiyani ajratib ko‘rsatish mumkin emas.

Shunday qilib, huquq normasi quyidagilarni belgilab beradi:

1. kim, nimani va qachon qilishi kerakligini (gipoteza);
2. huquqiy normaning ma’no-mazmunini (dispozitsiya);
3. huquq normasi bajarilmasligining oqibatlari qandayligini (sanksiya).

Ta’kidlash kerakki, barcha huquq normalari ham uchala tarkibiy qismga ega emas. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari faqat gipoteza va dispozitsiyaga ega. Sanksiyalar esa Konstitutsiya normalarini aniqlashtiruvchi qonunlar, kodekslar va shu kabilarda ifodalangan.

Lug‘at

javobgarlik – ответственность
chegara – граница; рамки; предел
hayfsan – выговор, порицание
jarima – штраф, взыскание
mahrum etmoq – лишать
nazarda tutmoq – иметь в виду, предусматривать
qalbaki – поддельный, лицемерный
aniqlamoq – уточнять, выяснять, определять
sharoit – условия, обстоятельства

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: xulq-atvor, chegara, qalbaki hujjat, noqonuniy, majburlov choralari, oqibati, aniqlashtiruvchi qonunlar.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: gipoteza, dispozitsiya, sanksiya, majburiyat, davlat chegarasi, hayfsan, jarima, huquq normasi, tarkibiy qismi.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Huquq normasi uch qism:, dispozitsiya, tashkil topgan.
 - 2) Gipotezada norma, bajariladigan bayon etiladi.
 - 3) Dispozitsiyada xulq-atvor o‘zi, huquq ... huquq va ... belgilab beriladi.
 - 4) Sanksiya ... normasini bajarmaganlik uchun ... organlari qo‘llaydigan chorasıdir.
 - 5) Lekin barcha huquq ... ham uchala qismga ega emas.
8. Huquq normalarining tarkibiy qismlariga o‘zingiz misollar keltiring.

Huquq manbayi va uning turlari

Xulq-atvor qoidasi huquqiy normaga aylanishi uchun ma'lum yuridik shakl olishi kerak. Bunday o'zgarish davlatning huquq ijodkorligi faoliyati natijasida yuzaga keladi.

Natijada qonun chiqaruvchi organning irodasi bajarilishi majburiy bo'lgan muayyan huquqiy hujjatda o'z ifodasini topadi.

Huquq manbayi deganda, uning obyektiv ifodalash usullari tushuniladi. Huquq manbalarini quyidagi uch asosiy turga bo'lish qabul qilingan :

1. huquqiy odat
2. yuridik pretsedent
3. normativ huquqiy hujjat

Huquqiy odat deb doimiy takrorlanishi natijasida barqaror xulq-atvor normasiga aylangan va keyinchalik davlat tomonidan tasdiqlangan xulq-atvor qoidasiga aytildi.

Odat insoniyat jamiyatni rivojlanishining ilk bosqichlaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquq manbayi bo'lgan. Odat astasekin normativ hujjat bilan siqib chiqarilgan va almashtirilgan. Shundan keyin u huquqning yuridik manbayi bo'lmay qolgan.

Hozirgi vaqtida odatning ahamiyati katta emas. U faqat qonun yetarli bo'lмаган yoki qonunning o'zi odatga havola qiladigan hollardagina saqlanib qolmokda.

Yuridik pretsedent huquqning shunday manbayiki, bunda muayyan ish bo'yicha chiqarilgan sud qarori kelgusida shunday ishlarni hal etishda qoidaga aylanishi mumkin.

Yuridik pretsedent ish bo'yicha sud yoki ma'muriy organning qaroriga muayyan normativ (umummajburiy) kuch berishni bildiradi. Bunday qaror kelgusida shunday ishlarni ko'rib chiqishda majburiy bo'ladi va shu bilan huquqiy tus oladi.

Huquqiy odat va yuridik pretsedent bir qator xorijiy mamlakatlarning huquq tizimida katta axamiyata ega, lekin O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida qo'llanilmaydi.

Sud pretsedenti Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Avstriyada huquq manbayi hisoblanadi. Bu mamlakatlarning hammasida sud hisobotlari chop etiladi. Ulardan pretsedentlar haqida ma'lumot olish mumkin. Albatta, bu mamlakatlarning har birida sud pretsedenti turlicha qo'llaniladi. Pretsedentni huquq manbayi sifatida tan olish qonun bo'lмаган yoki

bo‘lgan sharoitlari xam sudga qonun ijodkorligi vazifasini bajarish imkonini beradi.

Normativ huquqiy akt vakolatlari davlat organning belgilangan tartibda qabul qilgan yuridik hujjati bo‘lib, umummajburiy xulq-atvor qoidalarini o‘z ichiga oladi. Barcha normativ huquqiy hujjatlarga quyidagi belgilar xosdir :

- ular huquqiy normalarni belgilab beradilar, o‘zgartiradilar yoki bekor qiladilar;
- ularda belgilangan qoidalarning mazmuni bayon etiladi;
- belgilangan normalarga umummajburiy tus beradi yoki ilgari belgilangan normalarning amalda bo‘lishini bekor qiladi.

Lug‘at

barqaror – устойчивый, непоколебимый, стойкий

havola qilmoq – направлять, возлагать, поручать

ijodkorlik – творчество, творческая деятельность

siqib chiqarmoq - выдавливать, выжимать

almashtirmoq - менять, обменивать

hisobot – отчет, отчетность

ma’lumot - знания; сведения, данные

bekor qilmoq – отменять, аннулировать, расторгать

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang, lug‘at yordamida rus tiliga tarjima qiling: majburiy, hujjat, huquqiy odат, barqaror, huquq manbayi, hal etmoq, chop etilmoq, huquq tizimi, qo‘llammoq, ma’lumot, tan olmoq.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: odат, ma’muriy organ, sud hisobotlari, qonun ijodkorligi, huquqiy hujjat, qoidalar, tus bermoq, bekor qilmoq.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Quyidagi savollarga javob bering:
 - 1) Huquq manbayi deganda nimani tushunasiz ?
 - 2) Huquq manbalarining qanday turlarini bilasiz ?
 - 3) Huquqiy odat haqida nimalarni bilasiz ?
 - 4) Normativ huquqiy hujjat qanday hujjat ?

- 5) Yuridik pretsedent nima?
- 6) Normativ huquqiy hujjatlarga xos qanday belgilarni bilasiz ?
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 1. Xulq-atvor qoidasi huquqiy normaga aylanishi uchun ma’lum ... shakl olishi kerak.
 2. Huquq manbayi deganda, uning obyektiv ifodalash ... tushuniladi.
 3. Huquqiy odat doimiy takrorlanishi natijasida barqaror normasiga aylangan va keyinchalik davlat tomonidan
 4. Huquqiy odat va yuridik pretsedent bir qator ... mamlakatlarning huquq tizimida katta ega.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar

Inson huquqlariga doir xalqaro mezonlarga ko‘ra, ijtimoiy — iqtisodiy huquqlarga quyidagilar kiradi:

- millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi;
- mehnat qilishi huquqi;
- adolatli va maqbul mehnat sharoitlariga ega bo‘lgan huquq;
- mulk huquqi;
- erkin ish tanlash huquqi;
- ish tashlash huquqi;
- dam olish huquqi;
- ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni himoya qilish uchun kasaba uyushmalari tuzish huquqi;
- ijtimoiy ta’midot huquqi;
- oila qurish, onalik, bolalik huquqlari va himoyasi;
- etarli hayot darajasiga bo‘lgan huquq;
- yuqori jismoniy va ruhiy sog‘liq darajasiga bo‘lgan huquq;
- bilim olish huquqi;
- madaniy hayotda qatnashish huquqi;
- ilmiy taraqqiyot va uning amalda qo‘llanishi natijalaridan foydalanish huquqi;
- mualliflik huquqi, ya’ni inson har qanday ilmiy, adabiy, badiiy mehnatiga doir ma’naviy va moddiy manfaatlari himoyasidan foydalanish.

Dono chinlar: «**Mamlakat tarixi uning huquqi tarixidir**», — deydilar.

Inson tarixi shuni ko'rsatadiki, xususiy mulkni tan olgan davlatgina boy - badavlatdir (xalqimiz ham «davlat» so'zini boylik ma'nosida ishlataladi, cho'ntagi baquvvat odamni «badavlat» deydi), asosiy aholisi mulkdor bo'lgan mamlakatgina barqarordir, inson manfaatiga tayanadigan tuzumgina qudratlidir.

Lug‘at

maqbul – принятый, приемлемый

ta'minot – обеспечение, снабжение

himoya qilmoq - защищать, охранять

jismoniy – физический, телесный

taraqqiyot – развитие, прогресс

mualliflik huquqi – авторские права

xususiy – частный, особенный

mulkdor – собственник, имущий

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va lug‘at yordamida rus tiliga tarjima qiling: xalqaro mezon, taqdir, adolatli, maqbul, mulk huquqi, himoya qilish, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy-iqtisodiy.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: belgilamoq, mehnat sharoiti, tanlamoq, mualliflik huquqi, adabiy, ma’naviy, xususiy mulk, mulkdor, barqaror, tan olmoq.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Mamlakatlarning o‘z taqdirini o‘zi ... huquqi.
 - 2) Adolatli va maqbul mehnat sharoitlariga ... huquq.
 - 3) Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni himoya qilish uchun ... tuzish huquqi .

- 4) Ilmiy taraqqiyot va uning amalda qo'llanishi natijalaridan ... huquqi.
- 5) Xususiy mulkni ... davlatgina boy-badavlatdir.
- 6) Inson ... tayanadigan tuzumgina qudratlidir.
8. Siz o'z huquqlaringizdan foydalanasisizmi?

Yuridik faktlar

Huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi yoki barham toptiruvchi faktlar **yuridik faktlar** deyiladi. Yuridik fakt boshqa faktlardan o'zining ma'lum huquqiy natija qoldirishi bilan farqlanadi.

Yuridik faktlar huquqiy munosabatlarning zaruriy va aniq shart — sharoiti sifatida maydonga chiqadi. Demak, huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi yuridik faktlar deb ataladigan muayyan hayotiy shart-sharoitni taqozo etadi.

Yuridik faktlar yuridik hodisa, yuridik harakat va yuridik holat kabi shakllarga ega.

O'zbekiston fuqarosining tug'ilishi yuridik hodisa bo'lib, davlat bilan tug'ilgan bolaning ota-onalari o'rtasida konstitutsiyaviy — huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Uning 18 yoshga to'lishi esa, boshqa huquqiy munosabatlarni (saylash va saylanish huquqini) keltirib chiqaradi. Yuridik hodisa shunday yuridik faktki, uning sodir bo'lishi inson erki va ehtiyoji bilan bog'liq emas.

Konstitutsiyaviy — huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarishga yuridik harakatlar insonning faoliyati, uning irodasi va xohishi natijasida paydo bo'ladi. Ular huquqqa muvofiq va huquqqa zid (agar ular huquq normasi bilan man qilingan bo'lsa) bo'lishi mumkin. Huquqqa muvofiq harakatlar, o'z navbatida, yuridik xatti - harakatlar va yuridik aktlarga bo'linadi.

Huquqqa muvofiq yuridik xatti - harakatlar qonunda ko'rsatilgan normalarning to'g'ri bajarilishi natijasida kelib chiqadigan konstitutsiyaviy — huquqiy munosabatlardir. Bunday harakatlarning misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunlarining Oliy Majlis tomonidan muhofaza qilinib, qabul qilinishini yoki respublika Prezidenti tomonidan farmon chiqarilib, muayyan shaxsning orden bilan mukofotlanishini keltirish mumkin, chunki ular O'zbekiston Konstitutsiyasiga mos keladi.

Lug‘at

barham topmoq – кончать, положить конец
saylanmoq – выбирать, избирать
sodir bo‘lmoq – происходить, проявляться
ehtiyoj – потребность; нужда, запросы
hatti-harakat - поведение, поступок; тактика
o‘zgartirmoq – менять; преображать
tug‘ilmoq – рождаться; возникать; появляться
mos kelmoq – соответствовать, подходить
munosabat – отношение, связь

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va lug‘at yordamida rus tiliga tarjima qiling: huquqiy munosabatlar, o‘zgartirmoq, natija, shart-sharoit, yuridik hodisa, yuridik harakat, yuridik holat, inson erki, ehtiyoj, sodir bo‘lmoq, man qilinmoq.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: vujudga kelmoq, barham topmoq, saylash huquqi, qabul qilinmoq, bajarmoq, farqlamoq, taqozo etmoq, mukofotlanmoq, mos kelmoq.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Quyidagi savollarga javob bering:
 - 1) Yuridik faktlar deganda nimani tushunasiz ?
 - 2) Yuridik faktlarning qanday shakllarini bilasiz?
 - 3) Yuridik hodisa nima ?
 - 4) Yuridik harakat haqida nimalarni bilasiz ?
 - 5) Yuridik xatti-harakat haqida gapiring .
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib ko‘chiring.
 - 1) Huquqiy munosabatlarning vujudga, o‘zgartiruvchi yoki faktlar faktlar deyiladi.
 - 2) Yuridik faktlar yuridik , yuridik va yuridik ... kabi shakllariga ega.
 - 3) O‘zbekiston fuqarosining yuridik hisoblanadi.
 - 4) Huquqqa muvofiq, o‘z navbatida yuridik va yuridik ... bo‘linadi.

8. Yuridik faktlarga o‘zingiz misollar keltiring.

Xalqaro huquqning paydo bo‘lishi

Xalqaro huquq huquqning boshqa sohalari kabi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. U muayyan ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida qadimiy ilk jamoalar va qabilalar bir-biridan alohida ajralgan holda emas, balki qabilalarining yozilmagan qonunlari bilan birlashgan bo‘lgan. Birinchi odat qoidalari davlatchilikning vujudga kelishidan oldin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq paydo bo‘lgan.

Agar xalqaro huquq davlatlararo huquq sifatida tushunilsa, u holda, davlatchilik paydo bo‘lib, rivojlanishi bilan vujudga kelganini e’tirof etish lozim.

Xalqaro huquq tarixiy, ijtimoiy-huquqiy faoliyat rivojlanishining natijasi. Xalqaro huquq insonlarning o‘z milliy manfaatlarini anglash vositasi sifatida paydo bo‘lishi, ayniqsa, xalqaro munosabatlarning doimiy o‘zgarib turishiga aloqadorligi bilan va milliy davlatlar va xalqlarining taraqqiyotiga muhim ta’sir ko‘rsatgan va ko‘rsatib kelmoqda. Kishilik tarixi davomida xalqaro huquq nafaqat xalqaro munosabatlarning taraqqiyoti bilan birga rivojlanib kelgan, balki ularga ma’lum darajada ta’sir ham ko‘rsatgan.

Xalqaro huquqning kelib chiqishi tabiiy va obyektiv jarayondir. Xalqaro huquq paydo bo‘lishining umumiy shart-sharoiti davlatlarning xohish - irodasi emas, balki insoniyat hayotining sharoiti, ijtimoiy mehnat taqsimoti, davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishidir.

Xalqaro huquq - bizni o‘rab turgan dunyoning muhim bir ajralmas qismi. U insonga, xalqlarga, davlatlarga doimiy ravishda ta’sir ko‘rsatib keladi. Xalqaro huquq-muhim huquqiy kategoriya bo‘lib, xalqaro munosabatlardan, ularning iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy va boshqa xususiyatlardan o‘sib chiqqan.

Shunday qilib, xalqaro huquqning paydo bo‘lishi bevosa davlatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq. Davlatlar taraqqiyotining obyektiv shart-sharoiti ular o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy munosabatlarni o‘rnatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Buning natijasida huquqning mustaqil tizimi sifatida xalqaro huquq paydo bo‘lgan va rivojlangan.

Xalqaro huquq davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi turli xil munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Lug‘at

xalqaro – международный
bosqich – ступень
qabilalar – племена
ibridoij jamoa – первобытное общество
e’tirof etmoq – признаваться, сознаваться
mehnat taqsimoti – разделение труда
xususiyat – особенность, специфика, свойство
zarurat – необходимость, надобность
jarayon – течение, процесс
birlashmoq – соединяться, объединяться

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang, lug‘at yordamida rus tiliga tarjima qiling: xalqaro huquq, taraqqiyot, ilk jamoalar, milliy, jarayon, mehnat taqsimoti, zaruriyat, tartibga solmoq, xususiyat.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: vujudga kelmoq, yozilmagan qonunlar, ibridoij jamoa, aloqadorlik, ta’sir ko‘rsatmoq, iqtisodiy, harbiy, madaniy, siyosiy.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn bo‘yicha savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Xalqaro huquq muayyan ijtimoiy ... rivojlanishi natijasida vujudga kelgan.
 - 2) Birinchi odad qoidalari tizimi davridayoq paydo bo‘lgan.
 - 3) Xalqaro huquqning kelib chiqishi ... va ... jarayondir.
 - 4) Xalqaro huquqning paydo bo‘lishi bevosita vujudga kelishi va bilan bog‘liq.
 - 5) Xalqaro huquq davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi turli tartibga solishga

Xalqaro huquq va konstitutsiya

Davlatlarning tashqi siyosati har doim u yoki bu darajada konstitutsiya bilan tartibga solib kelingan. XVIII asrning oxirlari XX asrning boshlarida qabul qilingan konstitutsiyalarda oliv hokimiyatning an'anaviy vakolatlari ro'yxatida "urush e'lon qilish" to'g'risidagi qoida qayd etilishi bilan birga "urush huquqi" suverenitetning zaruriy belgisi sifatida ko'ringan. Biroq o'sha paytda ham siyosiy vosita sifatida urushdan tiyilish to'g'risidagi "tinchlik moddalari" bo'lgan. Bu eng avvalo, Fransyaning konstitutsiyaviy, hujjatlariga taaluqli. 1791 yilgi Fransiya Konstitutsiyasida bosqinchilik urushlaridan tiyilish to'g'risidagi qoidalari mustahkamlangan. 1931 yildagi Ispaniya Konstitutsiyasi "urushdan tiyilishni milliy siyosiy vosita" deb e'lon qilgan.

Ikkinci jahon urushdan so'ng ahvol tubdan o'zgardi. Tinchlik moddalari Italiya, Yaponiya, GFR va boshqa bir necha davlatlarning konstitutsiyalarida mustahkamlab qo'yildi. 1947 yilgi Yaponiya Konstitutsiyasining 9- moddasida urushdan so'zsiz voz kechish e'lon qilinib, mamlakatda qurolli kuchlarni tashkil qilish ta'qilandi.

XX asrning ikkinchi yarmida qabul qilingan konstitutsiyalar uchun davlatlarning tashqi siyosatini tartibga solish doirasini kengaytirish xosdir. Bunga quyidagilar kiradi:

birinchidan, tashqi siyosatning ayrim prinsiplarini rasmiy ravishda e'lon qilish, xalqaro munosabat masalalarini tartibga solish;

ikkinchidan, urush e'lon qilish va tinchlik o'rnatish;

uchinchidan, xalqaro huquq va davlat ichki huquqlarining munosabati;

to'rtinchidan, xalqaro shartnomalar tuzish, ratifikatsiya qilish, denonsatsiya qilish bo'yicha davlat organlarining vakolatlarini belgilash;

beshinchidan, inson huquqlari — fuqarolik, inson huquklari va erkinliklari, ekstraditsiya (shaxsni davlatga qaytarish), boshpana olish hukuqini himoya qilish sohasida hamkorlikni belgilovchi qoidalarni belgilash;

oltinchidan, davlatlararo iqtisodiy va harbiy-siyosiy integratsiyani tartibga solish.

Lug‘at

tashqi siyosat – внешняя политика
qayd etmoq – отмечать, регистрировать
tiyilmoq – воздержаться, удерживаться
voz kechmoq – отказываться, отступаться
so‘zsiz – без слов; безусловно, беспрекословно
ahvol – положение, состояние, обстоятельства
bosqinchilik – грабительство, грабеж, захватнические действия
boshpana – убежище, приют, жилище, дом
hamkorlik – содружество, сотрудничество
belgilamoq – намечать, определять, устанавливать

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: halqaro huquq, tartibga solinmoq, an’anaviy, qayd etmoq, siyosiy vosita, tiyilmoq, bosqinchilik, ahvol, tubdan o‘zgarmoq, voz kechmoq, qurolli kuchlar, boshpana olmoq, siyosat.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: tinchlik, e’lon qilmoq, jahon urushi, so‘zsiz, rasmiy ravishda, tashqi siyosat, konstitutsiya, ratifikatsiya qilmoq, inson huquqlari.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn bo‘yicha savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Davlatlarning tashqi doimo konstitutsiya bilan solinib kelgingan.
 - 2) 1791 yilgi Fransiya bosqinchilik tiyilishi to‘g‘risidagi ... mustahkamlangan.
 - 3) 1931 yildagi Ispaniya “urushdan milliy vosita” deb ... qilgan.
 - 4) Ikkinci jahon so‘ng ... tubdan o‘zgardi
 - 5) Tinchlik Italiya, , GFR va boshqa bir necha ... konstitutsiyalarida ... qo‘yildi.
 - 6) Yaponiya esa urushdan so‘zsiz ... e’lon qilinib, mamlakatda tashkil qilish

Konstitutsiyaviy huquq fani tushunchasi

Yuridik fanlar ijtimoiy-siyosiy fanlar tarkibiga kirib, o‘z navbatida 30 ga yaqin mustaqil fan sohalaridan tashkil topadi. Bu fanlar huquqshunoslikning qaysi sohasini o‘rganishidan qat’iy nazar, ma’lum darajada bir-biri bilan bog‘liq. Barcha huquqshunoslik fanlarini 3 turga bo‘lish mumkin:

- a) umumnazariy bilim beruvchi yoki mutaxassislikka yetaklovchi;
- b) alohida huquq tarmoqlarini o‘rganuvchi;
- v) amaliy xarakterdagi huquqshunoslik fanlari.

O‘rganilayotgan Konstitutsiyaviy huquq alohida huquq tarmoqlarini o‘rganuvchi fanlar turkumiga kiradi. Bu turkumdagi fanlarga Konstitutsiyaviy huquq faniga yaqin turadigan ma’muriy, grajdani, moliya, yer, mehnat, jinoyat, xo‘jalik huquqi kabi fanlarni kiritish mumkin.

Har bir huquqshunoslik fani o‘zi o‘rganadigan masalalar yig‘indisiga (predmeti)ga ega. Lekin, shunday huquqiy munosabatlar borki, ularni bir vaqtida bir nechta yuridik fanlar o‘rganadi. Bundan, ular bir-birini qaytarar ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Chunki, har bir fan alohida hodisani yoki masalani o‘zining predmeti doirasi va talabiga mos ravishda o‘rganishni ko‘zda tutadi. Masalan, Konstitutsiyaviy huquq fani davlatning barcha organlari to‘g‘risida umumiylar xarakteristika bersa, ma’muriy huquq fani davlatning ijro etuvchi hokimiyatini amalga oshiruvchi — boshqaruv organlari to‘g‘risida aniqroq va atroflicha tushuncha beradi.

Demak, fanlarning bir-biriga yaqinligini boshqa fanlar tizimidagi o‘rnini, ular o‘rganadigan masalalar (predmet) nuqtayi nazaridan aniqlash, ya’ni, konkret masalaga qanday yondoshish kerakligini ajratish bilan bilish mumkin.

Lug‘at

mustaqil – самостоятельный, независимый
soha – поприще, отрасль, область
moliya – финансы
jinoyat – преступления, злодеяние
xo‘jalik -хозяйство
yondashmoq – подходить, соприкасаться
xulosa – итог, вывод, заключение
atroflicha – всесторонне, основательно

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: umumnazariy, amaliy, ma’muriy, ko‘zda tutmoq, boshqaruv organlari, yondashmoq, ajratmoq.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: huquq tarmoqlari, moliya, jinoyat, xo‘jalik huquqi, ijro etuvchi, tushuncha, nuqtayi nazar, xulosa.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Quyidagi savollarga javob bering:
 - 1) Yuridik fanlar qanday fanlar tarkibiga kiradi ?
 - 2) Qanday huquqshunoslik fanlarini bilasiz ?
 - 3) Konstitutsiyaviy huquq huquqshunoslik fanlarining qaysi turkumiga kiradi ?
 - 4) Bu turkumga yana qaysi fanlar kiradi ?
 - 5) Fanlarning bir-biriga yaqinligini nimalar bilan izohlaysiz ?
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 1. Yuridik fanlar fanlar tarkibiga kiradi.
 2. Barcha fanlarni turga bo‘lish mumkin.
 3. Konstitutsiyaviy huquq alohida huquq o‘rganuvchi turkumiga kiradi.
 4. Har bir fan o‘z ... ega.
 5. Har bir fan alohida yoki ... o‘zining predmeti doirasi va talabiga mos ravishda o‘rganishni
 6. Konstitutsiyaviy huquq fani barcha fanlari to‘g‘risida umumiyligi beradi.

Konstitutsiyaviy huquq manbalari

Huquq normalarini ifodalagan, o‘zida jamlagan huquqiy aktlar huquq manbalari hisoblanadi. Konstitutsiyaviy normalar boshqa huquqiy normalar kabi tegishli shakllar orqali o‘z ifodasini topadi va oldiga qo‘ygan maqsadini bajaradi. Bular qonun va qonun osti huquqiy aktlardir.

Qonun - Oliy Majlis tomonidan mahsus tartiblarga rioya qilingan holda ishlab chiqiladigan, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ aktdir.

Qonun asosida ishlab chiqiladigan aktlar esa davlatning boshqa organlari tomonidan tayyorlanib qabul qilinadi. Ular qonun osti aktlari yoki Qonunga mos aktlar deb yuritiladi.

Konstitutsiyaviy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga mo‘ljallangan huquqiy normalarni quyidagi manbalardan topish mumkin: O‘zbekiston Konstitutsiyasi, Koraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Konstitutsiyaviy sud aktlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari shular jumlasidandir.

Konstitutsiyaviy huquq faqat Konstitutsiya normalaridan emas, balki boshqa huquqiy aktlardan ham tashkil topadi. Jamiyatning faktik Konstitutsiyasini tashkil qiladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan bu normalarning barchasini biz Konstitutsiyaviy normalar deb ataymiz. Shuning uchun, «Konstitutsiya normalari» va «Konstitutsiyaviy normalar» hamda «konstitutsiya» va «Konstitutsiyaviy huquq» atamalarini bir-biriga qo‘sib tushunmaslik kerak.

Konstitutsiyaviy munosabatlar faktik va yuridik munosabatlardan iborat. Faktik Konstitutsiyaviy munosabatlar yoki faktik konstitutsiya yuridik konstitutsiyani ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Faktik Konstitutsiyaviy munosabatlarning doirasi keng va rang-barang bo‘lib, ularning barchasini birdaniga yuridik holatga aylantirish mumkin emas.

Lug‘at

jamalamoq – собирать; подытоживать

rioya qilmoq – снисхождение, соблюдение, выполнение

mahalliy – местный

asos - основа, основание, база

holat – положение, состояние

mo‘ljallamoq – намечать, рассчитывать

tashkil tormoq - организовываться, быть организованным

xizmat qilmoq – служить, работать

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: qonun osti aktlar, tartib, farmon, mahalliy, yuridik holat, asos.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: huquqiy aktlar, mo‘ljallangan, tashkil etmoq, xizmat qilmoq, qarorlar, munosabatlar.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Huquq normalarini , o‘zida jamlagan ... aktlar huquq manbalari
 - 2) Qonun - tomonidan maxsus rioya qilingan holda ishlab chiqiladigan , ... kuchga ega bo‘lgan normativ aktdir.
 - 3) Qonun asosida ishlab chiqadigan aktlar boshqa organlari tomonidan qabul qilinadi.
 - 4) Ular qonun yoki qonunga deb yuritiladi.
 - 5) Konstitutsiyaviy munosabatlar ... va munosabatlardan iborat.
 - 6) Faktik munosabatlar yoki ... konstitutsiya yuridik konstitutsiyani ishlab chiqish uchun bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining qomusi

O‘zbekiston Respublikasining Qomusi 1992 yilning 8 dekabrida qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Qomusi O‘zbekiston inson huquqlari va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiq demokratik respublika ekanligini tantanali ravishda e’lon etdi.

O‘zbekiston Respublikasining Qomusiga ko‘ra xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir.

O‘zbekiston Respublikasining Qomusi barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanliklarini; jinsi, irqi, millati, tili, dini,

ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida tengligini kafolatlaydi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi.

Qomusimiz biz uchun nazariy-huquqiy hujjat, burch va majburiyatlarimiz majmuasigina emas, balki hayotimizni farovon etish, uni chinakam qonuniy asosga qurish, o‘z haq-huquqlarimizni ta’minlash, jamiyatda qonun ustuvorligini o‘rnatishning hayotbaxsh manbayidir.

Lug‘at

qomus – энциклопедия; конституция

sodiq – верный, преданный

tantanali – торжественный, пышный

e’lon qilmoq – объявлять, извещать; опубликовывать

hokimiyat – власть, совет

e’tiqod – убеждение; вера

ijtimoiy mavqeи – социальное положение

hujjat – документ, доказательство, довод

majmua – сборник, собрание, свод

farovon – изобильный; благополучный

ustuvorlik –устойчивость, стойкость; непоколебимость, прочность

hayotbaxsh – дарующий жизнь, оживляющий

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.

2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va ularni rus tiliga tarjima qiling: qomus, tantanali, hokimiyat, jins, irq, e’tiqod, ijtimoiy mavqeи, g‘amxo‘rlik qilmoq, qonuniy asos, o‘rnatmoq.

3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: demokratik respublika, burch, majburiyat, majmua, qonun ustuvorligi, hayotbaxsh, manbayi.

4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

5. Matn asosida savollar tuzing.

6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib ko‘chiring:
 - 1) O‘zbekiston Respublikasining Qomusi yilning qabul qilindi.
 - 2) O‘zbekiston Respublikasining Qomusiga ko‘ra xalq hokimiyatining birdan-bir
 - 3) Davlat jamiyatning ..., ilmiy va ... rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi.
 - 4) Qomusimiz barcha fuqarolarning ... oldida kafolatlaydi.

Toshkent - O‘zbekiston Respublikasining poytaxti

Har bir davlat o‘z poytaxtiga ega. Shu bois poytaxt shahar bir qator o‘ziga xos jihatga ega: unda davlat hokimiyatining, davlat boshlig‘ining qarorgohi, davlat boshqaruvi va jamoat birlashmalarining markaziy idoralari joylashadi. Mamlakatni rivojlantirishning asosiy siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishlari ishlab chiqiladi, chet el diplomatik vakolatxonalarini ishlab turadi.

Azim va navqiron **Toshkent - O‘zbekiston Respublikasining poytaxti.**

Toshkent shahrining O‘zbekiston poytaxti sifatida alohida maqomi shundan iboratki, uning hududida O‘zbekiston Prezidentining qarorgohi joylashgan. Bu yerda Oliy Majlis va respublika hukumati, Konstitutsiyaviy, Oliy xo‘jalik sudlari, ijroiya hokimiyatining markaziy organlari, ya’ni respublika vazirliklari va davlat qo‘mitalari faoliyat ko‘rsatadi. Poytaxt xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning diplomatik vakolatxonalarini joylashgan maskandir.

Toshkent - do‘stlik va tinchlik shahri. U dunyoda ko‘plab xalqaro shartnomalar imzolangan joy ekanligi bilan mashhur. Toshkentda ko‘plab siyosiy, iqtisodiy, madaniy anjumanlar o‘tkaziladi.

Toshkent - qadimiy, ikki ming yildan ortiq tarixga ega bo‘lgan yirik shahar. Unda ikki milliondan ziyod aholi istiqomat qiladi. Zamonaviy, salobatli binolari, Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘, ulug‘ bobomiz Amir Temur nomidagi hiyobon, «Oqsaroy», «Turkiston» va «Xalqlar do‘stligi» saroylari, Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek haykallari, masjidu madrasalar, ko‘hna Sharq uslubida qurilgan va bezatilgan rastalar, qad

rostlayotgan mehmonxonalar hamda boshqa obidalar, yer osti metrosi uning ko‘rk va shuhratini orttiradi.

Lug‘at

poytaxt – столица

hudud – границы, пределы, рубежи

maskan – обиталище, место жительства, кров

istiqomat qilmoq – жить, проживать, обитать

salobatli – величавый, величественный

obidalar – археологические памятники

ko‘hna – древний, старый

uslub – стиль; способ, манера

shuhrat – слава, известность

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: davlat hokimiyyati, markaziy idora, iqtisodiy yo‘nalishlar, vakolatxona, navqiron, maqom, qarorgoh, xo‘jalik sudi, maskan, istiqomat qilmoq, salobatli.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: poytaxt, anjuman, ko‘hna, rastalar, obidalar, ko‘rk qo‘shmoq, shuhrat orttirmoq.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Har bir davlat ega.
 - 2) Aziz va ... Toshkent - ... poytaxti.
 - 3) Toshkent shahrining hududida qarorgohi
 - 4) Poytaxtda xorijiy va ... tashkilotlarning diplomatik joylashgan.
 - 5) Toshkentda ko‘plab ..., iqtisodiy , anjumanlar
 - 6) Toshkent – qadimiy , ortiq ega bo‘lgan yirik
 - 7) Unda ziyod aholi istiqomat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining konstitutsiyaviy asoslari

Konstitutsiyamizning birinchi bo‘limida suveren O‘zbekiston hayotining muhim tomonlarini konstitutsiyaviy jihatdan tartibga solishning umumiy prinsiplari mustahkamlangan.Unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

birinchidan, konstitutsiyaviy tuzumning asoslarini bilib olish;

ikkinchidan, qonunlar va qonuniylikka baho berishga imkon beradigan ishonchli mezonlarga ega bo‘lish;

uchinchidan, davlatchilik asosi sifatidagi yagona sovet tizimidan voz kechishdan kelib chiqadigan hokimiyatning yangi konsepsiyasini bilib olish;

to‘rtinchidan, shaxs huquqiy maqomining asosini belgilash.

Suverenitet zamonaviy konstitutsiyaviy va xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan biridir. Suverenitet ikkita o‘zaro bog‘liq shaklga ega: xalq suvereniteti va davlat suvereniteti.

Xalq suvereniteti faqat xalq (millat)gina davlatning asosiy manbayi ekanligini bildiradi. "Milliy suverenitet" prinsipi XVIII asr Yevropa Uyg‘onish davrining buyuk namoyandalari tomonidan shakllantirilgan edi. Bu prinsip Fransiyaning 1789 yilgi "Inson huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasi"da yuridik jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan edi. Hozirgi vaqtda xalq suvereniteti prinsipi va millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi butun jahon xalqaro va konstitutsiyaviy huquqida e’tirof etilgan.

Davlat suvereniteti xech kimning hohishiga bog‘liq emasligini xalqning suveren irodasini ifoda etuvchi davlat hokimiyati ichki ishlarda va xalqaro munosabatlarda butunlay mustaqil ekanligini bildiradi. Davlat suvereniteti, birinchidan, mamlakatning hududida davlat hokimiyati ustun; ikkinchidan, davlat boshqa davlatlar bilan qanday munosabatda bo‘lishini o‘zi belgilaydi, boshqa davlat esa uning ichki ishlariga aralashish huquqiga ega emas.

Lug‘at

ishonchli – надежный, доверенный

maqom – чин, должность; ранг; статус

namoyanda - представитель

shakllantirmoq - формировать

iroda – воля

mustaqil – самостоятельный, независимый

ustun – превосходный; господствующий

aralashmoq – смешиваться, вмешиваться
imkon bermoq – дать возможность

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: tuzum, baho bermoq, ishonchli, voz kechmoq, shakllangan, umumiylas, asos, e’tirof etmoq.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: imkon bermoq, mezon, xalq suvereniteti, taqdirni belgilash, ichki ishlar, aralashmoq.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Suverenitet konstitutsiyaviy va xalqaro asosiy biridir.
 - 2) Suverenitet xalq suvereniteti va ... suvereniteti kabi ikki ... ega.
 - 3) Xalq faqat xalq (millat) gina asosiy manbayi ekanligini bildiradi.
 - 4) “Milliy ” prinsipi XVIII asr Yevropa davrining buyuk tomonidan ... edi.
 - 5) Xalq suvereniteti prinsipi va millatning o‘z ... o‘zi belgilash huquqi butun jahon ... va ... huquqida e’tirof etilgan.
 - 6) Davlat davlat hokimiyati ichki va munosabatlarda butunlay ekanligini bildiradi.

O‘zbekiston huquq tizimi

O‘zbekiston huquq tizimi huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarni o‘rganadigan mavjud barcha huquq tarmoqlarining yig‘indisidir. Har bir huquq tarmog‘i muayyan ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish va tartibga solish predmetiga qarab bir-biridan farq qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimi moddiy va protsessual huquqlardan tashkil topadi. Moddiy huquqlar jamiyat a’zolari va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydigan qoidalar bo‘lib, umummajburiy xarakterga ega. Masalan, mehnat-huquqiy

munosabatlari mehnat-hukuqiy normalaridan tashkil topgan mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Protsessual huquq esa, moddiy huquq normalarini qo'llashda kelib chiqadigan, huquqdan foydalanuvchi va uni qo'llovchi subyektlarning talab va xizmat doiralarini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, davlat organlarida ishlovchi mansabdor shaxslarning o'zaro va fuqarolar bilan bo'ladigan huquqiy munosabatlarining rioya qilish zarur bo'lgan demokratik shartlarini belgilab beradi.

O'zbekiston huquq tizimi quyidagi moddiy (konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliya, mehnat, fuqarolik, xo'jalik, qishloq xo'jaligi, yer, ekologiya, oila, axloq tuzatish, jinoyat va h.k.) va protsessual (fuqarolik-protsessual, xo'jalik-protsessual, ma'muriy-protsessual, jinoiy-protsessual) huquq tarmoqlaridan tashkil topadi. Shular ichida Konstitutsiyaviy huquq markaziy o'rinni egallaydi.

Konstitutsiyaviy huquq jamiyat va davlat hayotining eng muhim tomonlarini tartibga solishni o'rganadi hamda huquqning boshqa sohalari uchun prinsipial qoidalar ishlab chiqadi. Konstitutsiyaviy huquq tomonidan o'rnatilgan normalar huquqning boshqa tarmoqlari uchun asosiy hisoblanadi.

Lug'at

yig'indi – совокупность, сумма

moddiy – материальный

markaziy – центральный, главный, основной

qoidalar – правила

hisoblanmoq – считаться, приниматься

huquqiy munosabatlar - правовые отношения

tarmoq – отрасль, область; сеть; проток

Topshiriqlar

1. Matnni o'qing.
2. Matndagi quyidagi so'z va so'z birikmalarining ma'nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: huquq tizimi, yig'indisi, moddiy huquq, mehnat qonunchiligi, xizmat doirasi, moliya, tarmoqlar, jinoyat, ahloq tuzatish, qoidalar.
3. Quyidagi so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: huquq tarmoqlari, tartibga solmoq, talab, demokratik shartlar, markaziy,

ishlab chiqmoq, o‘rin egallamoq, soha, aloqalar, farq qilmoq.

4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) O‘zbekiston huquq huquq bilan ... solinadigan ... o‘rganadigan barcha huquq ... yig‘indisidir.
 - 2) O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimi va ... huquqlardan
 - 3) Moddiy jamiyat a’zolari va ijtimoiy – siyosiy o‘rtasidagi mustahkamlaydigan ... bo‘lib, ... harakterga ega.
 - 4) Protsessual davlat ... ishlovchi mansabdor ... o‘zaro va fuqarolar bilan bo‘ladigan huquqiy ... rioya qilish demokratik belgilab beradi.
 - 5) O‘zbekiston huquq konstitutsiyaviy huquq o‘rinni egallaydi.
 - 6) Konstitutsiyaviy tomonidan o‘rnatilgan huquqning boshqa uchun hisoblanadi.

Jamoat birlashmalari va ularning tizimi

O‘zbekiston Respublikasi siyosiy tizimida siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari fuqarolarning o‘z qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda katta rol o‘ynaydilar. Jamoat birlashmalari mohiyatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini rivojlantirishga, ommani jamiyatni boshqarishga jalb qilishga yordam beradi. Chunki ularning faoliyati, xalqning respublika mustaqilligini ta’minlash, O‘zbekistonni ulug‘ davlatga aylantirish istagini o‘zida aks ettiradi. Respublika Prezidenti I.A. Karimov jamoat birlashmalari qatoriga kiruvchi siyosiy partiyalar to‘g‘risida Respublika Oliy Kengashining X sessiyasida shunday degan edi: «Bizning jamiyatimizda turli partiyalar va harakatlarning paydo bo‘layotgani ijobiy hol. Qarashlarning rang — barangligi to‘g‘ri yo‘lni tanlab olishga yordam beradi. Qaysi g‘oya insoniy bo‘lsa, odamlarga foydasi tegsa, o‘sha g‘oya jamiyatga kerak. Kelajakda partiyalar, jamoat harakatlarining roli va mavqeい yanada oshadi. Qaysi partiyaning dasturi xalqqa manzur bo‘lsa,

o'sha partiya hokimiyat tepasiga keladi. Agar dasturini, bergen va'dalarini bajara olmasa, o'rnini boshqa partiya vakillariga bo'shatib berishga majbur bo'ladi. Bunday ijobiy raqobatlardan xalq faqat yutishi mumkin».

Jamoat birlashmalari nima, kanday birlashmalar jamoat birlashmalari sifatida tan oladi? Jamoat birlashmalari umumiy manfaatdorlik negizida birlashgan, fuqarolarning erkin istaklari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilmalardir.

Bu jamoat birlashmalariga: siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlari, bolalar, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya, sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, fondlar, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmali kiradi.

Lug'at

ro'yobga chiqarmoq – осуществлять, создавать
omma – масса; массы
jalb qilmoq – привлекать; вовлекать
raqobat – конкуренция; соперничество
ixtiyoriy – добровольный
nogiron – ослабевший, вышедший из строя
ko'ngilli jamiyat – добровольное общество
birlashmalar - объединение; ассоциация

Topshiriqlar

1. Matnni o'qing.
2. Matndagi quyidagi so'z va so'z birikmalarining ma'nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: jamoat birlashmalar, ro'yobga chiqarmoq, boshqarmoq, jalb etmoq, istak, qarashlar, g'oya, mavqeい oshmoq, manzur bo'lmoq, raqobat, ixtiyoriy.
3. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini ishtirokida gaplar tuzing: umumiy manfaatdorlik, negizi, erkin istak, ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, aks ettirmoq, ommaviy harakatlar, nogironlar, madaniy-ma'rifiy.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so'zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o'qing, nuqtalar o'rniga kerakli so'z va so'z

birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:

- 1) Jamoat birlashmalar O‘zbekiston Respublikasining ... rivojlantirishga , ommani boshqarishga jalg yordam beradi.
- 2) Jamiyatimizda turli ... va paydo bo‘layotgani ijobiy hol.
- 3) Qarashlarning ... to‘g‘ri ... tanlab yordam beradi.
- 4) Qaysi g‘oya bo‘lsa, odamlarga tegsa, o‘sha ... jamiyatga kerak.
- 5) Jamoat birlashmalar ... manfaatdorlik negizida birlashgan erkin natijasida..... kelgan tuzilmalardir.
8. Siz o‘zingiz qaysi jamiyat birlashmalar a’zosisiz?

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘idir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtida Vazirlar Mahkamasining Rayisi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo‘limgan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bo‘lishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan 5 yil muddatga saylanadi.

Prezidentni saylash tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilanadi.

Prezident o‘z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo‘lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti:

- fuqarolarning huquqlarini va erkinliklarini, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir;
- O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi;

- mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;
- Respublika Oliy Majlisiga har yili ichki va xalqaro ahvol xususida ma’lumotnoma taqdim etadi;
- lavozim, shaxslarni taqdim etadi, tayinlaydi va ozod qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini imzolaydi;
- Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo‘mondoni hisoblanadi;
- urush holati e’lon qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari yorlig‘i bilan mukofotlaydi, O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarini hal etadi;
- amnistiya to‘g‘risidagi hujatlarni qabul qiladi va O‘zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan hukm qilingan fuqarolarni avf etadi va o‘z vakolatiga kiradigan boshqa masalalarini hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Vakolati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqqan Prezident umrbod Konstitutsiyaviy sud a’zosi lavozimini egallaydi.

Lug‘at

- lavozim – должность, пост
 muqim – оседлый, постоянно проживающий коренной, постоянно
 yashirin – тайный
 ovoz bermoq – голосовать
 muddat – срок, время
 tadbirkor – предприниматель
 kafil – поручитель, гарант; заверитель
 ma’lumotnoma – справочник
 unvon – звание, титул
 avf etmoq – помиловать
 iste’fo – отставка

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: ijro etuvchi, muqim yashamoq, yashirin ovoz, daxlsizdir, muhofaza etmoq, kafil bo‘lmoq, havfsizlik, chora-tadbirlar, ma’lumotnoma, boshpana bermoq, avf etmoq, umrbod.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: prezident, ish ko‘rmoq, taqdim etmoq , ozod qilmoq, faxriy unvon, iste’foga chiqmoq.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib ko‘chiring.
 - 1) O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida va hokimiyat boshlig‘idir.
 - 2) Prezidentni tartibi O‘zbekiston Respublikasining bilan
 - 3) Prezidentning daxlsizdir va bilan muhofaza etiladi.
 - 4) Prezident mamlakat va munosabatlarda nomidan ish ko‘radi.
 - 5) Prezident Respublika Oliy Majlisiga har yili ... va ... ahvol xususida taqdim etadi.
 - 6) U Qurolli Kuchlarining hisoblanadi.
 - 7) Prezident O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga va boshpana berishga oid hal etadi.
 - 8) Vakolati tugashi bilan iste’foga chiqqan..... umrbod konstitutsiyaviy a’zosi egallaydi.

Prokuratura xodimi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasiga muvofiq «O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysinuvchi prokurorlar amalga oshiradi». Ushbu konstitutsiyaviy norma O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida» gi qonuni hamda boshqa qonunosti me’yoriy hujjalarda o‘z aksini topgan.

Har bir prokuratura xodimi qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirar ekan, birinchi navbatda o‘zi ushbu qonunlarga, shuningdek, kasb etikasi va odobiga amal qilishi darkor.

Prokuratura organlarida prokuror, tergovchi va ish o‘rganuvchilar lavozimiga oliv yuridik ma’lumotga ega, zarur kasbiy fazilatlari bo‘lgan, zimmalariga yuklatiladigan xizmat vazifalarini bajarishga sog‘lig‘i imkon beradigan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmagan shaxslar tayinlanadilar. Prokuratura xodimlari ilmiy, o‘qituvchilik va ijodiyot faoliyatini mustasno etgan holda haq to‘lanadigan boshqa biron bir faoliyat yoki tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari mumkin emas.

Prokuratura xodimi o‘ta ma’suliyatli, talabchan, o‘z ishiga vijdonan yondashadigan, huquqiy bilimlarini muntazam oshirib boradigan shaxs bo‘lishi lozim.

Lug‘at

kasb – профессия, ремесло, занятие, специальность

fazilat – достоинство, преимущество

viloyat – провинция, область

tuman – район

talabchan – требовательный

vijdonan – добросовестно, честно, по совести

muntazam – регулярный, постоянный

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.

2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: nazorat, me’yoriy hujjatlar, kasb etikasi, tergovchi, ish o‘rganuvchilar, vijdonan, muntazam, haq to‘lanadigan, viloyatlar.

3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmali ishtirokida gaplar tuzing: respublika hududi, yuridik ma’lumot, fazilat, zimmasiga yuklatilmoq, tenglashtirmoq, tayinlanmoq.

4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib ko‘chiring:
 - 1) Har bir prokuratura hodimi, shuningdek, kasb va ... amal... lozim.
 - 2) Prokuror, tergovchi va ... lavozimiga oliv ma’lumotga ega bo‘lgan tayinlanadi.
 - 3) Prokuratura xodimlari , va ijodiyot tashqari haq biron ... bilan shug‘ullanishlari mumkin emas.
 - 4) Prokuratura xodimi, talabchan ,, huquqiy muntazam oshirib boradigan bo‘lishi lozim.

Advokat

Advokat oliv yuridik ma’lumotga ega shaxs bo‘lishi shart. Advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun unga bu huquqni beruvchi litsenziyaga ega bo‘lishi kerak.

Advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirish chog‘ida quyidagi huquqlarga egadir:

- tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo‘lgan barcha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning topshirig‘iga muvofiq ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya qilish;
- sudlarda, shuningdek ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risida ishlarni ko‘rib chiqayotgan organlarda dalil sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan faktlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘plash;
- yuridik yordam ko‘rsatilishi munosabati bilan davlat organlaridan, korxonalar, muassasalar, tashkilotlardan hamda jamoat birlashmalaridan zarur bo‘lgan ma’lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni so‘rash va olish;
- yuridik yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan masalalar yuzasidan ekspertlar xulosalarini, mutaxassislarining ma’lumotnomalarini mijozning roziligi bilan so‘rash va yozma tarzda olish;
- unga vakolat bergen yoki uning himoyasida bo‘lgan shaxsga nisbatan ish yuritayotgan sudga va boshqa davlat organlariga to‘plangan materiallarni taqdim etish;

- mansabdor shaxslarga iltimosnama va shikoyat berish hamda ulardan yozma tarzda dalil - isbotli javob olish;
- qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish.

Advokat o‘z kasbiy faoliyatida amaldagi qonun hujjatlarning talablariga rioya etishi unga yuridik yordam so‘rab murojaat etgan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish uchun qonunda ko‘zda tutilgan vositalar va usullardan foydalanishi shart.

Lug‘at

amalga oshirmoq – претворять в жизнь, воплощать, осуществлять
korxona – предприятие, производство

muassasa – учреждения

dalil – довод, доказательство, улика

tavsifnama – характеристика

mijoz – клиент, постоянный покупатель

taqdim etmoq - преподносить, представлять

ko‘zda tutmoq – предусматривать; имеет в виду

usul – способ, приём, метод; система

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.

2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: ma’lumot, kasbiy faoliyat, ifoda etmoq, tavsifnama, xulosa, mijoz, taqdim etmoq, shikoyat, iltimosnama, vositalar, ko‘zda tutilmoq.

3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: advokat, muassasalar, ma’muriy , to‘plamoq, yordam ko‘rsatmoq, taqdim etmoq, himoya qilmoq, usullardan foydalanmoq.

4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

5. Matn asosida savollar tuzing.

6. Matn mazmunini so‘zlab bering

7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:

1) Advokat yuridik ... ega shaxs bo‘lishi shart.

2) Advokat unga bu huquqni litsenziyaga ... kerak.

- 3) Advokat sudlarda ... sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan to‘g‘risidagi to‘plash huquqiga ega.
- 4) Advokat mansabdor ... iltimosnomasi va ... berish hamda ulardan yozma dalil- javob ... huquqiga egadir.
8. Siz advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishni hohlarmidingiz?

Notarius

O‘zbekiston Respublikasida notarius lavozimiga oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan, davlat notarial idorasida yoki xususiy amaliyat bilan shug‘ullanuvchi notarius huzurida kamida bir yillik muddatli stajirovkani o‘tab malaka imtihonini topshirgan, notarial faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi tayinlanadi. Notariusning oliy yuridik ma’lumotli stajyori va yordamchisi bo‘lishi mumkin. Xususiy amaliyat bilan shug‘ullanuvchi notarius mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar orasidan stajyorni, shuningdek, yordamchisini mustaqil tarzda ishga qabul qilishga haqlidir. Notariuslar o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lib, faoliyatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladi.

Notarius: ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatidan tashqari, tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishga; shartnomalar tuzishda vositachilik xizmati ko‘rsatishga haqli emas. Xususiy amaliyat bilan shug‘ullanuvchi notarius yuridik shaxsdir. U o‘z idorasiga ega bo‘lish, bankda hisob-kitob varaqasi va boshqa hisob varaqalar ochish, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish, xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish va ularni to‘xtatish, tushgan daromadni tasarruf etish, sudda o‘z nomidan qatnashish va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqlidir.

Notarius quyidagi huquqlarga ega:

- o‘ziga murojaat kilgan barcha shaxslar uchun nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish;
- bitim va arizalarning loyihalarni tuzish, hujjatlarning nusxalarini va ulardan ko‘chirmalarni tayyorlash, shuningdek, notarial harakatlarning amalga oshirilishiga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

- jismoniy va yuridik shaxslardan notarial harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilib olish.

Notarius jismoniy va yuridik shaxslarga o‘z hujjatlarini amalga oshirishda va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko‘maklashadi. Ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirib berish; notarial harakatlarni amalga oshirish vaqtida fuqarolar yoki mansabdor shaxslar tomonidan qonunchilik buzilganligi aniqlangan taqdirda zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi uchun tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yoki prokurorga bu haqda xabar qilish va boshqa majburiyatlarga ega.

Lug‘at

amaliyot – деятельность, практика

malaka – навык, квалификация

vositachilik – посредничество, посредничать

hisob-kitob varaqasi – расчетный листок

daromad – доход, приход

tasarruf etmoq – владеть, распоряжаться

loyiha – проект

ko‘chirma – выписка, выпись

ko‘maklashmoq – оказывать поддержку; поддерживать

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: lavozim, xususiy, malaka, tayinlanmoq, amalga oshirmoq, ijodiy, tadbirkorlik, vositachilik, hisob varaqasi, daromad, jismoniy shaxs, xususiy amaliyot.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmali ishtirokida gaplar tuzing: Notarius, shartnomalar, tasarruf etmoq, nazarda tutmoq, loyiha, hujjat nusxasi, yuridik shaxs, ko‘maklashmoq, majburiyat.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida quyidagi savollarga javob bering:
 - 1) Notarius lavozimiga qanday fuqarolar tayinlanadi ?
 - 2) Notarius o‘z faoliyatida nimalarga amal qiladi ?
 - 3) Notarius o‘z faoliyatidan tashqari nimalarga haqli emas ?
 - 4) Notariusning huquqlari haqida gapiring.

- 5) Notarius qanday majburiyatlarga ega ?
- 6) Siz notariusga murojaat qilganmisiz ?
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Notariuslar o‘z faoliyatida bo‘lib, amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining qonun amal qiladi.
 - 2) Notarius tadbirkorlik va shartnomalar tuzishda ... xizmati ko‘rsatishga emas.
 - 3) U o‘z idorasiga ega bo‘lish, bankda varaqasi ochishga haqlidir.
 - 4) Notarius o‘ziga murojaat qilgan barcha nazarda tutilgan notarial amalga ... huquqiga ega.
 - 5) Notarius va shaxslarga o‘z xujjatlarini amalga va qonuniy ... himoya qilishda
 - 6) Notarius bitim va arizalarning tuzish, nusxalarini va ulardan ko‘chirmalar huquqiga ega.

Nizom

Nizom-muassasa yoki uning tarkibiy bo‘linmali tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat. Nizom ayrim mansabdor shaxslarga va turli tadbirlar (ko‘rik, musobaqa, konkurs va boshqalar) ga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Ko‘pincha nizom muassasalar ta’sis etilishi yoki tashkil topishi paytida tuziladi va yuqori tashkilotlar farmoyishi bilan tasdiqlanadi. Muassasalarning tarkibiy qismlari ularning rahbarlari tomonidan tuziladi va muassasa rahbari farmoyishi bilan yoki tasdiqlash ustxatini qo‘yish bilan kuchga kiradi.

Muvaqqat komissiyalar, guruhlar va shu kabilarning huquqiy maqomlari ham nizom bilan belgilanadi.

Nizomning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjat turining nomi (Nizom)
2. Vazifalari nizom bilan belgilanayotgan muassasa (tarkibiy qismi) nomi
3. Mazmuni (matni): muassasa tuzilishidan maqsad va asoslar, asosiy vazifalari, muassasa tuzilishi, huquqi, ishni tashkil qilish tartiboti:

4. Muassasa rahbari imzosi
5. Sana va joyi
6. Tasdiqlash ustxati (yuqori qismida o‘ng burchakda joylashadi).

Lug‘at

nizom – положение

– polojeniye

tadbirlar – меры, мероприятие

ko‘rik – смотр, осмотр, просмотр

musobaqa – соревнование, состязание

tasdiqlamoq – утверждать, ратифицировать

kuchga kirmoq – вступать в силу

muvaqqat – временный, непостоянный

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: nizom, muassasa, hujjat, ko‘rik, ta’sis etilmoq, ustxat qo‘ymoq, kuchga kirmoq.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: musobaqa, tadbirlar, tasdiqlamoq, muvaqqat komissiyalar, tarkibiy qism, belgilanmoq, yuqori tashkilotlar, burch.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib ko‘chiring:
 - 1) Nizom-muassasa yoki uning tarkibiy bo‘linmalari , huquqi ,, ishni tashkil qilish belgilaydigan hujjat.
 - 2) Nizom ayrim mansabdor va turli nisbatan ham tuzilishi mumkin.
 - 3) Ko‘pincha muassasalar ta’sis yoki tashkil topish paytida va yuqori tashkilotlar ... bilan tasdiqlanadi.
 - 4) Muvaqqat komissiyalar, guruhlar hududiy maqomlari ham bilan....
8. Siz o‘zingiz ta’lim olayotgan o‘quv yurti nizomi bilan tanishmisiz?

Tavsiyanoma

Tavsiyanoma - biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etuvchi rasmiy hujjat.

Tavsiyanomalar ijodiy uyushmalar, muassasa ma'muriyati yoki alohida shaxs tomonidan berilishi mumkin.

Har qanday tavsiyanoma matnida tavsiya qilinayotgan shaxsning xususiyatlari - mutaxassis sifatida malakasi, ishchanligi, oilaviy, ahloqiy jihatlari va ijtimoiy faoliyatiga baho beriladi. Shuningdek, tavsiya etilayotgan lavozimga yoki ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarga a'zo bo'lishga munosib ekanligiga ishonch bildiriladi.

Tavsiyanomalar ba'zi xususiyatlari ko'ra tavsifnomaga o'xshaydi. Shu sababli ham tavsiyanomalarining ko'pchiligi tavsifiy tavsiyanomalar shaklida bo'ladi. Ular orasidagi asosiy farq shundaki, tavsifnomalarda shaxsning barcha ijobiy, salbiy xususiyatlari qayd qilinadi. Tavsiyanomalarda esa uning ijobiy xususiyatlari ko'rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning zimmasiga yuklatiladigan vazifani bajara olishiga ishonch bildiradi va tavsiya etiladi.

Turli mukofotlarga taqdim etilishi ham tavsiyanoma tamoyilida bo'ladi.

Tavsiyanomaning asosiy zaruriy kismlari:

1. Hujjatning nomi (Tavsiyanoma);
2. Matn;
3. Tavsiyanoma beruvchi shaxsning lavozimi, ism-familiyasi;
4. Imzo;
5. Sana.

Lug'at

tavsiyanoma – рекомендация

a'zo bo'lmoq – стать членом

munosib – соответственный, соответствующий

ishonch – вера, доверие

tavsiya etmoq – рекомендовать, советовать

tamoyil – склонность, направление

matn – текст

imzo – подпись

salbiy – отрицательный

ijobiy – положительный

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: tavsiyanoma, rasmiy hujjat, ijodiy uyushmalar, muassasa ma’muriyati, ishchanlik, ahloqiy, tavfsifnoma, salbiy xususiyatlar, qayd qilmoq.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: a’zo bo‘lmoq, tavsiya etmoq, ijtimoiy faoliyat, baho bermoq, qayd qilmoq, ishonch bildirmoq, ijobiy, farq.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering.
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Tavsiyanoma – ma’lum yoki ... tashkilotlarga bo‘lish uchun tafsiya etuvchi ... hujjat.
 - 2) Tavsiyanomalar, muassasa ... yoki aloxida tomonidan berilishi mumkin.
 - 3) Tavsiyanoma matnida shaxsning xususiyatlari- mutaxasis sifatida ..., oilaviy , ... jihatlari va ijtimoiy ... baho beriladi.
 - 4) Tavsiyanomalar ba’zi ko‘ra ... o‘xshaydi.
 - 5) Ular orasidagi asosiy ... shundagi, tavsifnomalarda barcha ..., salbiy qayd qilinadi.
 - 6) Tavsiyanomalarda shaxsning ... xususiyatlari ko‘rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning yuklatiladigan bajara olishiga ... va

Iltimos xat

Muassasalar ma’lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa muassasalarga rasmiy xat orqali iltimos qilishi mumkin. Muassasalar o‘rtasidagi bunday o‘zaro yozishmalar iltimos xat vositasida bajariladi. Iltimos xat xizmat xatlari orasida eng ko‘p tarqalgan turlardan hisoblanadi. Iltimos xatlar ham boshqa xatlar kabi muassasalarning xos ish kog‘oziga yoziladi va albatta jo‘natilishi sanasi va jo‘natma tartib raqami ko‘rsatiladi.

Iltimos xatlarning asosiy zaruriy qismlari:

1. Xat oluvchi tashkilot va mansabdar shaxsning nomi;

2. Matn;
3. Ilova (zarur bo‘lgan hollarda);
4. Mas’ul shaxsning imzosi;

Iltimos xatlarning eng sodda ko‘rinishi shaxsiy va jamoat arizalariga o‘xshash bo‘ladi.

Lug‘at

iltimos xat –прощение, ходатайство, петиция
tugatmoq – кончать, завершать; ликвидировать
yozishma – переписка
xizmat – служба, работа, труд, услуга
ish qog‘ozi – деловая бумага
tartib raqami – порядковый номер
ilova – добавление, приложение
sodda – простой, несложный
ariza – заявление

Topshiriqlar

1. Matnni o‘qing.
2. Matndagi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang va rus tiliga tarjima qiling: iltimos xat, muassasa, rasmiy xat, yozishmalar, xizmat xatlari, tartib raqam, jamoat.
3. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: ish qog‘ozi, mas’ul shaxs, shaxsiy, ilova, amalga oshirish.
4. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
5. Matn asosida savollar tuzing.
6. Matn mazmunini so‘zlab bering
7. Quyidagi gaplarni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z va so‘z birikmalarni qo‘yib, ko‘chiring:
 - 1) Muassasalar ma’lum bir amalga oshirish yoki maqsadida boshqa rasmiy ... orqali iltimos qilishi mumkin.
 - 2) Bunday o‘zaro ... iltimos ... vositasida ...
 - 3) Iltimos xatlar xos ... yoziladi vasanasi, jo‘natma ... ko‘rsatiladi.
8. O‘zingiz namunadan foydalanib iltimos xati yozing.

Huquqshunoslikka oid atamalarning qisqacha izohli lug‘ati

Avantyura – real kuch, sharoit va imkoniyatlarni hisobga olmay tavakkaliga qilingan qaltis xatti – harakat.

Avtonomiya - ichki qonunlar chiqarish va o‘z – o‘zini mustaqil idora qilish huquqi; o‘z-o‘zini idora qilish.

Advokat – ayblanuvchini sudda himoya qiluvchi, sudda biror shaxsning ishini olib boruvchi, huquqiy masalalar bo‘yicha maslaxat beruvchi yurist, himoyachi.

Advokatura - advokatlik ishi, faoliyati, advokatlik; advokatlar.

Ayblov – jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsning aybdorligini isbotlashga qaratilgan harakatlar.

Akt – akt; dalolatnama

a) harakat, ish;

b) yuridik ahamiyatga ega hujjat.

Akseptant – ko‘rsatilgan hisob, vekseli bo‘yicha to‘lash majburiyatini olgan shaxs.

Alibi – biror jinoyatda ishtiroki bor deb gumon qilingan yoki ayblanayotgan shaxsning jinoyat sodir bo‘lgan joyda bo‘lmaganligidan va uning gunohsizligidan dalolat beruvchi holat.

Aliment – biror shaxsning ikkinchi shaxsga majburan to‘laydigan nafaqa.

Amnistiya – jazoga hukm qilinganlarning oliy hokimiyat farmoni bilan qisman yoki butunlay ozod qilinishi , avf etilishi; avf.

Anarxiya – a)har qanday davlat hokimiyatini, hamma uchun majburiy qonun – qoidalarni, odob - ahloq normalarini inkor etish, hokimiyatsizlik b) beboshlik, tartibsizlik

Appelatsiya – chiqarilgan hukmdan norozi bo‘lib, ariza bilan yuqori idoraga shikoyat qilish.

Ariza – rasmiy yozma iltimos yoki shikoyat.

Artikul - a) ba’zi qonun va rasmiy hujjatlarda maxsus modda;

b) mahsulot, tovar turi, uning raqamli yoki harfiy ifodasi.

Arxiv - eski hujjatlar saqlanadigan muassasa , bo‘lim.

Atribut – biror voqeа, narsaning doimiy ajralmas belgisi.

Bitim - a) o‘zaro kelishuv, to‘xtam, qaror; b) xalqaro munosabatlarda ahdnama, shartnoma.

Boj – chet davlatdan keltirilgan mol uchun olinadigan haq.

Bojxona – boj olinadigan joy, idora.

Boshqaruv - korxona, muassasa, tashkilot ishlarini idora qilmoq, yo‘lga solib turmoq.

Boshqaruv organlari -o‘z ish faoliyatida qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni qo‘llaydi va ularning ijob etilishini ta’minlaydi.

Burch – ado etilishi, bajarilishi majburiy bo‘lgan vazifa, majburiyat.

Budget – a) davlat, korxona, muassasaning muayyan davrdagi daromad va harajatlar ro‘yxati;

b) shaxsning, oilaning muayyan davrdagi yalpi daromad va harajatlari.

Byurokratizm - a) ijrochi hokimiyat apparatini jamiyat a’zolari irodasidan ajratib qo‘yishga asoslangan siyosiy, iqtisodiy boshqaruv tizimi;

b) quruq rasmiyatchilik bilan ish ko‘rish, qog‘ozbozlik, sansalorlik.

Vakansiya – bo‘sh o‘rin, band qilinmagan vazifa.

Vakil – biror kishi, muassasa, tashkilot nomidan ish ko‘rishga vakolati bo‘lgan, uning manfaatlayini ko‘zlovchi va himoya qiluvchi shaxs.

Vakolatnomma - vakillik huquqini beruvchi hujjat, vakolat ishonch yorlig‘i.

Vakolatxona – biror davlat tomonidan o‘zga yerda ta’sis etilgan va uning manfaatlarini ko‘zlab ishonch ko‘radigan muassasa.

Valuta – a) muayyan davlatlarning pul birligi;

b) pul sistemasining turi (oltin, kumush, qog‘oz valyuta);

v) xorijiy davlatlarning pullari, xalqaro hisob-kitoblarda qo‘llaniladigan xorijiy pul birligidagi kredit va to‘lov hujjatlari (veksellar, cheklar va h.o.).

Vasiyatnomma – meros qoldiruvchining o‘z mulkiga doir farmoyishi.

Veksel – qarz hujjati, tilxat.

Verdikt – maxsus chaqiriladigan sud maslaxatchilarining ishtirokida ko‘rilgan ish yuzasidan sudlanuvchining aybli yoki aybsizligini aniqlaydigan holat haqidagi xulosa.

Veto – a) davlat boshlig‘ining parlament qabul qilgan qonun loyihasini imzolash va kuchga kiritishni rad etishi;

b) biror qarorning qabul qilinishiga monelik qiluvchi birdamlikning yo‘qligi;

Vindikatsiya – mulk egasi (da‘vogar)ning o‘z mulkini noqonuniy tarzda egallab olgan boshqa shaxsdan sud orqali talab qilishi.

Gerb – davlat, shahar, tabaqa, urug‘ va hokazolarning bayroq, pul, muhr va sh.k.ga tushiriladigan ramziy belgisi.

Gipoteza – huquq normasining tarkibiy unsuri bo‘lib, ushbu xuquqiy normaning qanday sharoitlarda harakatga kirishishi, ya’ni huquq

normasida belgilangan xatti – harakat qanday sharoitlarda bajarilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Grant- grant beruvchi tashkilotlar shartlari asosida o‘quv ilmiy-tadqiqot ishlari uchun fuqarolar yoki yuridik shaxslarga beriladigan pul mablag‘lari.

Guvoх – sud yoki tergovdagi ish yuzasidan o‘z bilganlarini aytib berish uchun sudga chaqirilgan kishi.

Davlat mexanizmi – davlat organlari va muassasalarning davlat hukmini, davlat vazifalari va funksiyalarini amalga oshiruvchi yaxlit iyerarxik tizimi.

Daktiloskopiya – odam qo‘li, oyog‘i qoldirgan izlarni o‘rganuvchi kriminalistika bo‘limi.

Debitor – muayyan korxona, tashkilot yoki muassasaga qarzdor yuridik yoki jismoniy shaxs.

Deklaratsiya – biror muhim siyosiy masala yuzasidan rasmiy suratda e’lon qilingan bayonnama, qonun-qoidalar.

Dekret – biror masala yuzasidan chiqariladigan hukumat qarori, farmoni.

Demokratik davlat fuqarolarning davlat va jamoat ishlarini boshqarishdagi huquqlarini amalda ta’minlaydi.

Demokratiya – fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum.

Denominatsiya – mamlakat pul birligini qayta nomlamasdan yiriklashtirish.

Denonsatsiya – bir davlatning boshqa davlatga o‘zaro tuzilgan shartnomaning bekor qilinganligini bildirishi.

Depozit – kredit muassasalariga saqlash yoki foydalanish uchun vaqtincha qo‘yilgan pul va qimmatli qog‘ozlar.

Deputat so‘rovi deputat xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida boshqaruv organlariga qonuniylikning buzilishi bo‘yicha tegishli talab va uni mustahkamlash masalasini qo‘yadi.

Dividend – aksiyadorlik jamiyati sof foydasining aksiyalar soniga mos ravishda aksiyadorlarga taqsimlanadigan bir qismi.

Diktatura – hukmron sinfning kuchiga tayanuvchi cheklanmagan hokimiyat.

Diplomatiya – davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati.

Diskriminatiya – davlatlar, yuridik yoki jismoniy shaxslarning kamshitilishi.

Dispozitsiya – huquq normasing tarkibiy unsuri bo‘lib, unda huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari, xatti – harakatlari variantlari aniqlanadi.

Dotatsiya – fuqarolar va tashkilotlarga zararni, boshqa harajatlarni qoplash uchun davlat tomonidan berilgan pul.

Yer huquqi yerdan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga soladi.

Jabrlanuvchi –jinoyat natijasida ma’naviy, jismoniy yoki moddiy zarar tortgan shaxs.

Javobgar – qilmishi, xatti – harakati uchun javob beruvchi, javobgarlikka tortiluvchi.

Jamoa muzokaralar – shartnoma yoki bitimni tayyorlash, tuzish va o‘zgartirish bo‘yicha muzokaralar.

Jarima – qonun - qoidani buzganlik, qonun-qoidaga xilof xatti-harakat uchun to‘lanadigan pul, to‘lov.

Jinoyat – davlat qonunlari bilan belgilangan tartibga xilof va shu qonunlarga asosan javobgarlikka tortishni talab qiladigan, jamoat uchun xavfli xatti – harakat.

Jinoyat huquqi yordamida davlat qanday ijtimoiy xavfli xatti – harakat jinoyat hisoblanishi va ular uchun qanday jazo tayinlanishini belgilaydi.

Zaxira yerlar – ijaraga, foydalanishga, egalik qilishga va boshqa mulk qilib berilmagan yerlar.

Ijro – qaror, hukm, topshiriq, talab va sh.k ning bajarilishi, amalga oshirilishi.

Ijro varaqasi – sud hukmini majburiy amalga oshirish uchun yozilgan hujjat.

Ijroiya organlari – ijroiya hokimiysi bevosita mamlakatni boshqarayotgan hukumatga ya’ni hukumat rahbari, uning o‘rnbosarlari va hukumat a’zolariga tegishlidir.

Immunitet – davlat uchun alohida mavqega ega bo‘lgan ayrim shaxslarga nisbatan qonunning ba’zi bir moddalarini istisno qilish.

Impichment – ayrim mamlakatlarda davlatning oliv mansabdor shaxslarini parlament sudiga tortish tartibi.

Inkorporatsiya – tizimlashtirishning bir turi bo‘lib, unda qonunlar, farmonlar, hukumat qarorlari, farmoyishlar va boshqa normativ huquqiy aktlarning o‘zgarish kiritilmasdan alfavit tarzda tizimga solinib nashr etilishi.

Inoguratsiya – yangi saylangan davlat boshlig‘ining lavozimga kirishish tantanali marosimi nomi.

Inson huquqi muayyan ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi me'yorlar, tamoyillar majmuasidir.

Inspektor – qaramog‘idagi organlar va shaxslar olib borayotgan faoliyatning to‘g‘riligini yoki biror soha bo‘yicha qonunlarning amalga oshirilishini nazorat qiluvchi mansabdor shaxs.

Interpol – xalqaro jinoyat – qidiruv politsiyasi tashkiloti.

Kadastr – a) muayyan obyektni davriy yoki doimiy kuzatish orqali tuziladigan axborotlarning tasniflangan majmui

b) jon boshiga soliqqa tortiladigan shaxslar ro‘yxati;

v) obyektlarning bahosi va o‘rtacha daromadi haqidagi ma’lumoti.

Karnet – chegara orqali yukli avtomobil transportiga eng kam rasmiyatçiliklar bilan olib o‘tish uchun bojxona ruxsatnomasi.

Kassatsiya – sud hukmidan norozi bo‘lib, ishni qayta ko‘rish to‘g‘risida yuqori sud organlariga shikoyat qilish usuli.

Kvalifikatsiya - a) muayyan jinoyat va noqonuniy harakatga qonunda belgilangan moddani aniqlab qo‘llash;

b) biron mehnat turiga kasbiy tayyorgarlik darajasi va saviyasi.

Kvorum – yig‘in o‘tkazish, qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan miqdordagi kishilar mavjudligi.

Kvota – a) saylov kvotasi bir deputatning saylanishi uchun zarur bo‘lgan eng kam ovoz miqdori;

b) hissa, qism, pay, norma, ishlab chiqarish birlashmalarining har bir ishtirokchisi uchun belgilab qo‘ylgan ishlab chiqarish, sotish, eksport yoki import hissasi.

Kidnepping – bolalarni, umuman odamlarni o‘g‘irlash.

Kodeks - muayyan huquq (qonunchilik) sohasidagi ustuvor normalarni ifoda etuvchi, mujassaslashtiruvchi qonun.

Kodekslashtirish – amaldagi qonunchilik normalarini chuqur va har tomonlama qayta ishlash hamda lozim bo‘lsa unga o‘zgartirishlar kiritish orqali yangi majmuiy, tizimlashtirilgan akt yaratish.

Kompensatsiya –a) biron narsa uchun haq, to‘lov;

b) qonunda belgilangan hollarda ishchi va xizmatchilarga beriladigan to‘lov.

Konstitutsiya – davlatning ijtimoiy va davlat tuzumini, saylov sistemasini, davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyatini fuqarolarning huquqlari, burchlarini belgilab beruvchi asosiy qonuni.

Konstitutsiyaviy monarxiya – monarx hokimiyati vakillik organi tomonidan cheklangan tuzum.

Kriminalist – jinoyatni tergov qilish, ochish usullarini o‘rganuvchi mutaxassis, jinoyat va jazo huquqini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

Liberal davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklari jamiyatning barcha sohalarida rasman amal qiladi, davlat ishlarida ularning ishtiroklariga yo‘l qo‘yiladi.

Lizing – asosiy ishlab chiqarish vositalariga va boshqa tovarlarni ishlab chiqarishda foydalanish uchun ijara berish.

Litsenziya –a) chet eldan mol-tovar olib kelish yoki mol chiqarish uchun beriladigan ruhsatnoma;

b) ixtiro, kashfiyot kabilardan foydalanish uchun ruxsatnoma.

Majburiy sug‘urta – qonunga ko‘ra amalga oshiriladigan sug‘urta.

Majburiy huquq konstitutsiyaviy huquq bilan bog‘liq bo‘lib, ijroiya hokimiyatini amalga oshirishda vujudga keladigan boshqaruv munosabatlarini tartibga soladi.

Mehnat huquqi – mehnat munosabatlarini vujudga kelishi, o‘zgarishi va barham topishining shartlarini, ish vaqtini hamda dam olish vaqtini muddatining davomiyligini aniqlash, mehnat muhofazasi, mehnat tizimiga doir munosabatlarni tartibga solish.

Militsiya – jamoat tartibini himoya qilish va davlatning ichki xavfsizligini ta’minlash vazifalarini bajaruvchi ma’muriy organ.

Moliya huquqi – davlatning moliya va byudjet faoliyatini amalga oshirish, banklar va boshqa moliyaviy muassasalar faoliyatida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solish.

Monitoring – qabul qilingan qonunlarning bajarilishi ahvoli, ularning inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartga muvofiqligi masalalarini nazorat qilish.

Nizom – muayyan davlat tuzilmalarining (jamoat birlashmalarining) tashkil etilishi tartibi, tuzilishi, vazifasi funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi majmuiy kodekslashtirilgan akt.

Notarius – notarial aktlarni bajaruvchi lavozimli shaxs.

Norasmiy inkorporatsiya bunda tizimlashtirilgan to‘plamlar tuzish unga mahsus vakolati bo‘lmagan idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Normativ huquqiy akt – davlat vakolatli organlari tomonidan o‘rnataladigan yoki ma’qullanadigan huquqiy akt.

Ombudsman – davlat organlari faoliyatida fuqarolar huquqi va erkinligiga amal qilinishini kuzatib turuvchi maxsus lavozimli shaxs.

Organ – biror boshqarma sistemasi tarkibiga kiruvchi muassasa, tashkilot.

Order – biror narsani olish, berish, biror ishni bajarish haqida berilgan ijozat qog‘ozi, buyruq varaqasi.

Pay – sherkchilik asosidagi ishga qo‘shilgan hissa, ulush.

Pakt – odatda katta siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan xalqaro shartnoma, bitim.

Palata – qonun chiqaruvchi oliy davlat organini tashkil etuvchi, deputatlardan iborat bo‘lgan davlat muassasasi.

Paritet sudlar qator mamlakatlarda davlatning maslahatlashuv organlari hisoblanib, mehnat nizolari va shunga o‘xshash masalalarni hal etish uchun ta’sis etilgan.

Patent – ixtirochingning o‘z ixtirosi uchun olgan huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Parlament – butunlay yoki qisman saylov asosida tuziladigan, qonun chiqaruvchi oliy davlat organi.

Parlementarizm – davlat organlariga rahbarlik qilish konstitutsiya bo‘yicha parlamentga taalluqli bo‘lgan davlat tuzumi.

Prezident – respublika shaklida idora qilinadigan ba’zi davlatlarning ma’lum muddatga saylab qo‘yiladigan davlat boshlig‘i.

Prezident farmonlari – ijroiya hokimiyati tizimida eng yuqori kuchga ega bo‘lgan normativ huquqiy akt.

Prokuratura – davlatda qonunga to‘la amal qilinishi ustidan nazorat qilib turuvchi va sudda davlat nomidan tuzilgan aybnomani himoya qiluvchi organ.

Prokuror - qonunga to‘la amal qilinishi ustidan davlat nazorati olib boruvchi lavozimli kishi.

Rasmiy inkorporatsiya – qonunchilik aktlarini ularni chiqargan organlar tomonidan to‘plam va majmua shaklida tizimlashtirish.

Ratifikatsiya – ahdlashuvchi davlatlarning vakillari tuzgan xalqaro shartnomaning oliy hokimiyat tomonidan tasdiqlanishi.

Rezidensiya – davlat boshlig‘i yoki hukumatning shuningdek, katta mansab egalarining doimiy qarorgohi, turar joyi, saroyi.

Repressiya – davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan qamoq, surgun kabi jazo choralar.

Respublika – hokimiyatning oliy organlari ma’lum muddatga saylanadigan davlat tuzumi va shunday davlatning o‘zi.

Referendum – davlat va jamiyat hayotining o‘ta muhim masalalari bo‘yicha umumxalq ovoz berishi.

Retsidivist – takror jinoyat qilgan kishi.

Saylovchilar nakazi – bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriq, talab, takliflar, saylovchilar tomonidan deputat bo‘lib saylanayotgan nomzodga nisbatan beriladigan savollar.

Sanksiya yuridik normaning tarkibiy unsuri bo‘lib, u huquqiy norma buzilgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan davlat majburlov chorasining turini belgilaydi.

Senat – parlamentning yuqori palatasi.

Suverenitet – xalqaro huquqda davlatning ichki va tashqi ishlarini olib borishda mustaqilligi.

Sud – fuqarolarning da’volariga oid yoki jinoiy ishlarni ko‘rib tegishli hukm chiqaruvchi davlat organi.

Sud pretsedenti – muayyan ish bo‘yicha odatda chiqadigan andozaviy qaror.

Sudya – sud organlarida sudga tushgan ishlarni ko‘rvuchi va shu ishlar bo‘yicha hukm chiqaruvchi lavozimli kishi.

So‘roq – sud, prokuratura organlariga tushgan yoki sudda ko‘rilayotgan ishning tavfsilotini va unga taalluqli haqiqatni aniqlash uchun olib boriladigan savol – javob.

Tabiiy huquq – tan olish yoki tan olmaslikdan qat’iy nazar hamma joyda bir xil ahamiyatga ega bo‘lgan qoidalar.

Tender (xizmat qilmoq, xizmat ko‘rsatmoq) – buyurtmalarni joylashtirishning tanlov shakli, u har xil xizmatlarni bajarishga jalb qilish va boshqa tadbirlar uchun uyushtiriladi.

Tergov – jinoyat yuz bergan sharoit uning sabablari qatnashchilarini tekshirish; so‘roq qilib dalillardan foydalanib aniqlash.

Tergovchi – biror ish yuzasidan dastlabki tergov o‘tkazuvchi lavozimli kishi.

Terror - siyosiy dushmanga nisbatan kuch ishlatish, o‘ldirish, qirish.

Terrorizm – terror bilan amalga oshiriladigan siyosat va taktika, terrorchilik.

Totalitar - zo‘rovonlik bilan xarakterlanadigan, demokratik ozodlik va shaxs erkinligini bostirishga qaratilgan.

Ultimatum – xalqaro diplomatik munosabatlarda yoki urushda eng qattiq choralar ko‘rilajagini eslatib qo‘yiladigan qat’iy talab.

Unvon – harbiy va fuqaro xizmatidagi xodimlarning muayyan huquq beradigan va majburiyatlar yuklaydigan xizmat darajasi.

Fakt – inkor qilib bo‘lmaydigan, real, bor narsa, haqiqiy voqeа, hodisa, dalil.

Federatsiya – alohida mustaqil davlatlarning birlashuvlari asosida tuzilgan yaxlit davlat, mustaqil davlatlar birlashmasi.

Forum – keng vakolatli katta yig‘ilish

Fuqaro – biror mamlakatning doimiy aholisi.

Fuqarolik protsessual huquqi – fuqarolik oila, mehnat, yer va moliyaviy sohalarda vujudga keladigan nizolarni qarab chiqish yuzasidan sud faoliyatini tartibga soladi.

Fuqarolik huquqi – mulkiy munosabatlarni shuningdek, shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro kafolat – xalqaro huquqda xalqaro majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash bilan bog‘liq huquqiy normalar yig‘indisi.

Xalqaro shartnama – ikki yoki undan ortiq davlatlar o‘rtasida tuziladigan huquq yoki majburiyatlarni o‘rnatadigan, o‘zgartiradigan, bekor qiladigan bitim.

Xalqaro xuquq – xalqlar, davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi.

Xartiya – ijtimoiy – siyosiy aholi deklaratsiyalarining nomi.

Xatlamoq – a) musodara qilingan mol – mulkni birma – bir hisobga olib, yozib chiqmoq .ro‘yxatga olmoq;

b) mol-mulkni birov nomiga qonuniy rasmiylashtirib bermoq.

Senzura – nashr qilinadigan, radio – televideniyada beriladigan va sahnada qo‘yiladigan materil yoki asarlarni davlat tomonidan nazorat qilish.

Shantaj – o‘z maqsadiga erishish uchun qilinadigan ig‘vo, do‘q urish, qo‘rqtish kabi yomon niyatdagi xatti-harakat, do‘q-po‘pisa.

Shartnama – biror masala yuzasidan o‘zaro kelishilganlik haqidagi yozma bitim.

Shtat – a) ba’zi federativ davlatlarda ma’lum darajada o‘z – o‘zini idora qilish xuquqiga ega bo‘lgan ma’muriy – territorial birlik;

b)biror muassasada ishlovchi xodimlar doimiy sostavi.

Shtraf – aybdordan jazo sifatida undiriladigan haq; jarima

Ekspert – qiyin va chigal masalani yechish uchun chaqirilgan mutaxassis.

Ekspertiza – qiyin yoki chigal masalani yechish va hal qilish uchun mutaxassislar ishtirokida uyushtirilgan tekshirish, shunday tekshirish o‘tkazuvchi mutaxassislar hay’ati.

Ekstremizm – keskin fikr va choralarini yoqlash, keskin choralarga tarafdorlik.

Elchi – diplomatik vakillarning eng katta martabasi, unvoni va shu unvonga ega bo‘lgan kishi.

Elchilik – biror davlatga boshqa davlat tomonidan mahsus topshiriq bilan yuborilgan delegatsiya, missiya.

Elchixona – bir suveren davlatning suveren davlat hukumati qoshidagi diplomatik vakolati.

Emansipatsiya – ozod bo‘lish, ozod qilish, qutulish; ozodlikka chiqish, ozodlikka chiqarish.

Embargo – chet el tovarlarini kiritish yoki olib chiqib ketishni davlat tomonidan ta’qiqlash yoki qurollarni vaqtincha to‘xtatib turish, ta’qiqlash.

Emblema – biror g‘oya yoki tushunchaning shartli simvolik belgisi, ramzi; biror tashkilot uyushma belgisi.

Emigrant – o‘z vatanini tark etib boshqa mamlakatga ketib qolgan odam, muhojir.

Emigratsiya – boshqa mamlakatga ko‘chib ketish.

Yuridik – huquqqa, huquqshunoslikka oid, huquqiy.

Yuridik majburiyat – huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquqiy normaga asosan o‘zlarining burchi bo‘lgan harakatni amalga oshirishlarini yoki harakatni sodir etishdan o‘zlarini tiyishlari.

Yuriskonsult – biror muassasaning huquq masalalari bilan shug‘ullanuvchi va uning manfaatlarini sud va boshqa tashkilotlarda himoya qiluvchi shaxs.

Yurisprudensiya – huquq to‘g‘risidagi fanlarning, huquq normalarining amaliy suratda qo‘llanishi bilan aloqador bo‘lgan bilimlar majmui.

Yurist – huquq sohasida amaliy yoki ilmiy tekshirish ishi olib boruvchi mutaxassis; huquqshunos.

Qaror – a) biror ish, masala yuzasidan o‘ylab yoki o‘ylashib qabul qilingan yo‘l - yo‘riq, xulosa, amalga oshirilishi lozim topilgan qat’iy fikr; ahd, to‘xtam;

b) rasmiy organ, tashkilot majlisining biron ishi, masala yuzasidan bamaslahat qabul qilingan to‘xtami, hukmi.

Qishloq xo‘jaligi huquqi qishloq xo‘jalik shirkatlari, fermer xo‘jaliklari, dehqon, ijara xo‘jaliklarining tashkil etilishi, faoliyat ko‘rsatish, ularning boshqa xo‘jalik subyektlari va tartibga soluvchi normalar majmuidan iborat.

Qonun – davlat hokimiysi tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo‘lgan ijtimoiy – huquqiy norma va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida.

Qonuniy – qonun bilan bilan belgilangan, qonunda ko‘rsatilgan.

Qonunshunos – qonunlarni yaxshi biladigan mutaxassis, yurist.

Hukm – sudning biror jinoiy ish yuzasidan chiqargan qat’iy qarori.

Hukumat – davlat hokimiyatining markaziy organlari majmui, mamlakatda davlatni bevosita boshqarib turuvchi, farmon beruvchi va ijro etuvchi oliy organ.

Huquq – bu davlat tomonidan o‘rnatilgan yoki ma’qullanadigan va qo‘riqlanadigan, hamma uchun majburiy bo‘lgan yashash qoidalari.

Huquq - ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulyator.

Huquqiy davlat davlat suvereniteti, qonunning ustivorligi, hokimiyatlarning bo‘linishi, shaxs huquqlari va erkinliklarining poydevorligi tamoyillari asosiga quriladi.

Huquq instituti – huquqiy normalarning alohida guruhi bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi.

Huquqiy munosabat – o‘zaro subyektiv huquq majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar (ya’ni, huquq sohiblari) o‘rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqa.

Huquqiy odat – uzoq davr mobaynida amalda bo‘lish natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish – turish qoidasi.

Huquqiy pretsedent – lot. praecedens - “avvalgisi, oldingisi” ma’nosini anglatadi. Sud yoki ma’muriy organning yozma yoki og‘zaki qarori, kelgusida barcha shunga o‘xshash ishlarni ko‘rib chiqish va hal qilish uchun asos bo‘ladigan namuna, etalon, norma sifatida qabul qilinsa, u pretsedent bo‘ladi.

Huquqiy tartibga solish – ijtimoiy munosabatlarga huquq yordamida umummajburiy, normativ tarzda tartibga solish maqsadida ta’sir etish jarayoni.

Huquq tarmog‘i – bir turdag'i ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar va huquq institutlarining alohida majmui.

Huquq tizimi – xuquqning ichki tuzilishi, ichki qurilishi – tarkibi bo‘lib, u huquqninng qanday qismlarida iborat ekanligini va qismlar o‘rtasidagi munosabat hamda nisbatni ko‘rsatadi.

Huquq funksiyalari – ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta’sir etishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, ularning mazmuni huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

- 1.** Додонов В.Н. и другие. Большой юридический словарь. СНФРА. Москва , 1997.
- 2.** Ruscha-o‘zbekcha lug‘at, ikki jildli, Toshkent, O‘zE, 1988.
- 3.** Sayidov A. , Tadjixonov U. Davlat va huquq asoslari, Toshkent: Sharq, 2002.
- 4.** O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikki jildli, M.: Русский язык, 1981.

Mundarija

Matnlar va topshiriqlar	3
Huquqshunoslikka oid atamalarning qisqacha izohli lug‘ati	50
Foydalanilgan asosiy adabiyot	71